



## MILLIY AVIAKOMPANIYA KORXONALARI TRANSFORMATSIYASI TIZIMLI TASHKIL ETILADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 15-iyun kuni “Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyatini transformatsiya qilish va IPOga tayyorlash ishlarini jadallashtirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.**

So‘nggi yillarda davlat ishtirokidagi yirik korxonalarini isloh qilish, ularda korporativ boshqaruv va hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Bu jarayonda Milliy investitsiya jamg‘armasi faoliyatining yo‘lga qo‘yilgani va uning boshqaruviga “Franklin Templeton” kompaniyasi jalb etilgani muhim qadam bo‘ldi.

O‘tgan oyda Milliy investitsiya jamg‘armasi ilk bor xalqaro bozorda 690 million dollarlik aktivlarni joylashtirdi. Bu orqali O‘zbekiston global kapital bozori qoidalarini asosida ishlashga tayyor ekanini haqida muhim signal berildi. Joylashtirish jarayonida talab taklifdan 4 barobar yuqori bo‘lib, yirik investorlar tomonidan qariyb 3 milliard dollarlik buyurtmalar berildi.

Endi jamg‘arma portfelidagi 13 ta yirik kompaniyada transformatsiya jarayonlarini tezlashtirib, ularni IPOga tayyorlash vazifasi turibdi. Jumladan, “Uzbekistan Airways”, “O‘zsanotqurilishbank”, “O‘zbekgidroenergo”, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” va “O‘zbektelekom” bo‘yicha ishlarni shu yilning o‘zida yakunlanishi maqsad qilingan.

Taqdimotda “Uzbekistan Airways” AJ misolida mazkur jarayonlarni tashkil etish masalalari ko‘rib chiqildi.

“Franklin Templeton” vakillari tomonidan milliy aviakompaniyaning faoliyati diagnostikadan o‘tkazilib, 115 ta chora-tadbirdan iborat transformatsiya dasturi ishlab chiqilgan. Ushbu dastur to‘liq amalga oshirilsa, kompaniyaning operatsion daromadlarini bir yilda 120 million dollarga oshirish imkonini berib beradi.

Jumladan, marshrutlarni optimallashtirish, to‘g‘ridan to‘g‘ri sotuvlarni oshirish va mijozlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, parovozlar orasidagi vaqtni qisqartirish, reyslarni bekor qilish holatlarini va kechikishlarni kamaytirish, keytering va texnik xizmat ko‘rsatish kabi tizim korxonalarini samaradorligini oshirish, bozordagi vaziyatga tezkor moslashish va malakali mutaxassislarni jalb qilish hisobidan qo‘shimcha daromad olish imkonini taqdim etildi.

Bu choralar natijasida aviakompaniyaning bozor qiymatini 1,6 milliard dollardan 2,3 milliard dollargacha oshirish imkonini mavjud. Shu bilan birga, dastur ishlab chiqilganiga bir necha oy bo‘lganiga qaramay, uni amalga oshirish ishlari sust borayotgani ko‘rsatib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari kompaniyani xalqaro kapital bozoriga tayyorlash uchun, avvalo, boshqaruv sifatini tubdan oshirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash, hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritish va kredit reytingini yaxshilash zarurligini ta’kidladi.

Yil yakunigacha milliy aviakompaniyaning 15-20 foiz aksiyasini xalqaro IPO orqali sotish maqsad qilingan. Buning uchun kompaniya faoliyatini xolis baholash, uning investitsion jolibadorligini oshirish, maxsus havo kemalarini kompaniya balansidan chiqarish, davlat buyurtmasi asosida bajarilgan xizmatlarni qoplash mexanizmini joriy etish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rilishi belgilandi.

Taqdimotda turizm sohasidagi yuqori o‘shish sur‘atlarini aviakompaniya oldiga yangi talablar qo‘yayotgani ham qayd etildi. Yil boshidan mamlakatimizga kelgan turistlar soni 27,5 foizga oshib, qariyb 5,5 million nafarga yetdi. Ayniqsa, Xitoy, Malayziya, Yaponiya va AQSHdan kelayotgan sayohatlar soni sezilarli ko‘paygan.

Ayni paytda milliy aviakompaniya bu o‘shishga yetarlicha tez moslasha olmayotgani ko‘rsatib o‘tildi. Samolyotlar parkini kengaytirish ishlarida kechikishlar mavjud.

Shu bois, aviakompaniyada xaridlar tizimini alohida tartib asosida tashkil etish, samolyotlar parkini kengaytirish bo‘yicha qarorlarni tezkor qabul qilish va bu jarayonlarda xalqaro amaliyotni joriy etish vazifasi qo‘yildi.

Prezidentimiz Toshkentni Markaziy Osiyoning yirik aviabog‘iga aylantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjudligini ta’kidladi. Buning uchun “Uzbekistan Airways”, “Uzbekistan Airports” va “Yangi Toshkent” aeroporti o‘rtasidagi hamkorlikni yagona tizim asosida muvofiqlashtirish, infratuzilma, yo‘nalishlar va tranzit tarmog‘ini o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirish zarurligi qayd etildi.

Mutasaddirlarga Milliy investitsiya jamg‘armasi portfelidagi korxonalar transformatsiyasini tizimli tashkil etish uchun alohida loyihani o‘z ichiga olishi zarur, kompaniyalar boshqaruv organlariga xalqaro moliya bozorlari talablarini yaxshi biladigan, amaliy tajribaga ega mutaxassislarni jalb qilish, har bir korxonaga bo‘yicha IPOga tayyorgarlikning aniq grafisini ishlab chiqish va ijrosini qat‘iy nazorat qilish topshirildi.

O‘ZA

## ALBANIYA PREZIDENTI RASMIY TASHRIF BILAN O‘ZBEKISTONDA BO‘LADI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Albaniya Respublikasi Prezidenti Bayram Begay rafiqasi hamrohligida 16-17-iyun kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ladi.**

Tashrif dasturiga muvofiq, Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadigan oliy darajadagi muzokaralarda O‘zbekiston va Albaniya o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilinadi.

Savdo, sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo‘jaligi, “yashil” energetika va turizm kabi ustuvor yo‘nalishlarda hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari e‘tibor markazida bo‘ladi.

Madaniy-gumanitar almashinuvni faollashtirish ham ko‘rib chiqiladi.

Xalqaro kun tartibidagi masalalar, jumladan, ko‘p tomonlama platformalar doirasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlash yuzasidan ham fikr almashish rejalashtirilgan.

Tashrif dasturi doirasida Albaniya Prezidenti V Toshkent xalqaro investitsiya forumida ham ishtirok etadi.

O‘ZA

## GERMANIYA FEDERAL PREZIDENTI RASMIY TASHRIF BILAN O‘ZBEKISTONGA KELADI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer rafiqasi hamrohligida 17-18-iyun kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ladi.**

Tashrif dasturiga muvofiq, ikki davlat rahbarlarining tor va kengaytirilgan tarkibidagi muzokaralari bo‘lib o‘tadi. O‘zbekiston — Germaniya ko‘p qirrali munosabatlari yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilinadi. Tomonlar savdo, sanoat kooperatsiyasi, energetika va “yashil” texnologiyalar, transport va logistika, farmatsevtika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi sohasida amaliy hamkorlikni kengaytirish, ta‘lim va gumanitar almashinuvlarni faollashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb mavzular yuzasidan ham fikr almashiladi.

Muzokaralar doirasida bir qator yangi qo‘shma loyiha va dasturlarni ishga tushirish hamda O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirishga qo‘shimcha sur‘at bag‘ishlaydigan hujjatlar to‘plamini qabul qilish rejalashtirilgan.

O‘ZA

## MUHM MINERALLAR SOHASI YANGI SANOAT TARMOQLARINI SHAKLLANTIRISH VA EKSPORTNI KO‘PAYTIRISHDA KATTA AHAMIYATGA EGA

**Prezident Shavkat Mirziyoyev sanoat uchun muhim minerallar xomashyo bazasini rivojlantirish hamda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.**

Dunyoda texnologik metallar va muhim minerallarga talab keskin ortib bormoqda. Elektrotexnika, mashinasozlik, aviatsiya, energetika, tibbiyot va boshqa yuqori texnologiyali tarmoqlar uchun zarur bo‘lgan bunday xomashyo va mahsulotlar iqtisodiy xavfsizlik hamda sanoat raqobatbardoshligini muhim omilga aylantirmoqda.

Mamlakatimizda bu yo‘nalishda katta salohiyat bor. Lekin hozirgi vaqtda O‘zbekiston texnologik metallar kombinatining asosiy faoliyati asosan volfram va molibden ishlab chiqarish bilan cheklanib qolmoqda. Vaholanki, yangi konlarni o‘zlashtirish, boyitish fabrikalari, gidro va pirometallurgiya zavodlarini qurish orqali 28 turdagi muhim minerallarni sanoat darajasida ishlab chiqarish imkoniyati mavjud.

Taqdimotda ushbu salohiyatni to‘liq ishga solish bo‘yicha 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan rejalar ko‘rib chiqildi. Unga ko‘ra, umumiy qiymati 4,2 milliard dollarlik 120 ta loyihani amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Bu orqali tarmoq hajmini 2028-yilgacha 1 milliard dollarga, 2030-yilgacha 2 milliard dollarga yetkazish imkoniyati borligi qayd etildi.

Joriy yilning o‘zida 166 million dollarlik 12 ta loyihani ishga tushirish rejalashtirilgan. Natijada yuqori so‘flikdagi selen, tellur va reniy kabi 3 turdagi yangi metall, kukun metallurgiyasi asosida avtodetallar singari 21 turdagi import o‘rini bosuvchi mahsulotlar hamda sulfat kislotasi ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Shuningdek, yangi quvvatlar hisobidan yuzlab ish o‘rinlari yaratiladi, byudjet tushumlari va eksport imkoniyatlari ortadi.

Volfram va molibden bo‘yicha “xomashyo — qayta ishlash — tayyor mahsulot” zanjirini tashkil etishga alohida e‘tibor qaratildi. Bu orqali faqat konsentrat yoki yarim tayyor mahsulot emas, balki yuqori qo‘shilgan qiymatga ega metall kukunlari, qotishmalar, sterjenlar, simlar, sanoat uchun detallar va boshqa tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsad qilingan.

Buning uchun Chirchiq shahrida “Kelajak metallari” texnopark va R&D markazining faoliyatini keng yo‘lga qo‘yish belgilangan. U yerda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, yuqori so‘flikdagi metallar va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur sharoit yaratiladi.

Prezidentimiz texnopark va uning rezidentlariga yer uchastkalari hamda infratuzilmadan foydalanish bo‘yicha qo‘shimcha imtiyozlar berish, startap loyihalarni moliyalashtirish dasturini ishlab chiqish zarurligini ta’kidladi.

Markaziy Osiyoda muhim minerallar bo‘yicha yagona ilmiy-tadqiqot va texnologik markazni shakllantirish masalasi ham ko‘rib chiqildi. Chirchiq shahrida tashkil etilayotgan nanotahlil laboratoriyasi geologiya, konchilik va metallurgiya loyihalari uchun zamonaviy tahlil xizmatlarini ko‘rsatadi. Laboratoriya to‘liq ishga tushgach, bir kunda 1 mingtagacha namuna tahlil qilinib, 6,5 million dollarlik import xizmatlari mahalliyashtiriladi, yana 4 million dollarlik xizmatlar eksporti yo‘lga qo‘yiladi.

Sohadagi loyihalarni tezlashtirish uchun geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish, istiqbolli maydonlar va

konlarni xalqaro standartlar asosida baholash, texnogen chiqindilarni qayta ishlash, xorijiy investorlar va texnologik hamkorlarni faol jalb qilish muhimligi qayd etildi.

Shu bilan birga, tarmoqda raqamlashtirish va sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish zarurligi ta’kidlandi. Geologik ma‘lumotlarni yagona raqamli bazaga jamlash, qidiruv ishlarini 3D modellashtrish, ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida nazorat qilish, bozor tahlili va loyihalar boshqaruvi zamonaviy platformalar orqali tashkil etish vazifalari belgilandi.

Soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalasiga ham e‘tibor qaratildi. Toshkent davlat texnika universiteti bilan dual ta‘lim tizimi yo‘lga qo‘yilib, Texnologik metallar kombinatida metallurgiya va materialshunoslik bo‘yicha 2 ta kafedra ochilgan. Ayni vaqtda universitetning 64 nafar talabasi ishlab chiqarish amaliyotini korxonada o‘tamoqda. Mutasaddirlarga dual ta‘lim qamrovini kengaytirish, o‘quv dasturlarini yangi loyihalar ehtiyojiga moslashtirish va bitiruvchilarni yuqori texnologik ishlab chiqarishlarga yo‘naltirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari muhim minerallar sohasi yangi sanoat tarmoqlarini shakllantirish, eksportni ko‘paytirish, texnologik mustaqillikni ta‘minlash va yuqori malakali ish o‘rinlari yaratishda katta ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi.

Mutasaddirlarga 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan loyihalar ijrosini qat‘iy nazorat qilish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

O‘ZA

## Yangi O‘zbekiston ruhi KECHAGI SABOQLAR VA BUGUNGI NURAFSHON KUNLAR



Xalqimizda “O‘tgan qishning sovug‘i yo‘q” degan maqol bor. Bunday donishmandona maqollardagi hikmatlar, haqiqatlarni tushunish, anglab yetish uchun xolis, shukrona tuyg‘usi bilan mulohaza qilish, o‘ylash kerak. Mazkur hikmatda ta’kidlanishicha, o‘tgan “sovug‘ kunlar”, qiyinchiliklar unutiladi. Kun mavzusiga navbatdagi masalalar, aytaylik, yangi muammolar chiqaveradi.

“O‘zbekiston bundan o‘n yil burun qanday edi, hayotimiz, sharoitlarimiz, turish-turmushimiz, tafakkurimiz, biyron tilimizning holi nechog‘liq edi o‘sha paytlari? Afsuski, odam bolasi tez unutadi. Qadriga yetish, shukr qilish degan oddiy insoniy tuyg‘ularni ham esdan chiqaradi. Ko‘z o‘ngimida yuz berayotgan katta o‘zgarishlarning farqiga bormaydi yoki bilib turib, takabburlik qiladi”, deb yozdi taniqli siyosatshunos Qudratilla Rafiqov “Millat Shavkati” maqolalasida.

Haqiqatan shunday. Odam bolasi tabiatan na issiqqa, na sovug‘ga chidaydi. Lekin baribir har bir imyon-e‘tiqodli, yaxshi-yomonning farqiga boradigan, yaxshilikning qadriga yetadigan, bir so‘z bilan aytganda, odamgarchiligi bor kishi bugungi o‘zgarishlarni, beqiyos imkoniyatlarni, albatta, e‘tirof etadi. Zero, bugunning qadriga yetish uchun kechagi kuni eslash kerak-ku!

▶ Davomi 3-betda

## BU MAYDONGA TUSHMOQ O‘ZI G‘ALABADIR

**O‘zbek futbolchilarining “Jahon chempionati — 2026”da birinchi bor maydonga chiqishlariga bag‘ishlanadi**

**Ona yurtim, teraklaring, tollaringdan, Esgan jonbaxsh, hayotbaxsh shamollaringdan. Bir zamonlar paxtangni xo‘p kuylagandim, Endi bir she‘r aytayin futbollaringdan.**

**Raqibimiz Kolumbmi yo Kolumbiyo? Mening bobom g‘olibmi yo Kolumbmi yo? Bizga faqat bir koptok ber, ko‘hna dunyo, Bor matohing, ashqolu dashqollaringdan.**

**Futbol, futbol, bir armonim ortib qolgan, Yillar mendan koptogimni tortib olgan. Men chempion bo‘larimdim shu zamonada, Kechib barcha romlaringu follaringdan.**

**Yer shari ham koptok misol ayonladir, Aylanadir, kecha-kunduz aylanadir. Zo‘r o‘yinga shaylanmoqda ro‘yi jahon, Ogoh bo‘lgil korchallon dallollaringdan.**

**Bosh murabbiy, ya‘ni janob Fabioga, Bir savolim bordir noxos, favqulodda: Qay biri zo‘r: qurolmi yo, futbolmi yo? Jahon bozoriga chiqqan mollaringdan?**

**Sharqu G‘arbdan aytсам agar — gapni qo‘ygin, Yarmi harbu zarb bo‘lsa gar, yarmi — o‘yin. Aytgil endi erta-inda ne kutaylik? Ne shamollar — Janub va Shimollaringdan?**



**Demak, faqat futbol qolmish, faqat futbol, Olam ahlin birlashtirar u bemalol. Nimjonim, boshingdagi do‘ppingdan ayt, Yer yuzini zabt etgan timsollaringdan.**

**Isming Abbosmidi, Sherzod va yo Eldor, Senga hamroh bo‘lsin faqat nomus va or. Shashtlaringda Alpomishning shiddati bor, Ko‘ksingdagi yolqinlaring, yollaringdan.**

**Prezident o‘zi duo berdi sizga, O‘ttiz sakkiz millionli xalq izingizda. Bu hisobli dunyo derlar, hisoblarig — Goh nolu bir, gohi nolu nollaringdan.**

**Har bir zarbang elu yurtga tuhfa bo‘lgay, Buni hech kim bilmasa ham FIFA bilgay. Olam xabar topdi noming yangraganda, Sen yetishgan marrayu kamollaringdan.**

**Bu maydonga tushmoq o‘zi g‘alabadir, Mardi maydon asli zamon talabidir.**



**Bayroqlaring bir qadrdon ko‘rinadir, Baxting balqib yulduzing, hilollaringdan.**

**Sen bilandir barcha mulki turoniylar, Otaxonlar, onaxonlar, nuroniylar. Mingga kirgan chinorlardan yuz ming duo, Yana yuz ming — kampirlardan chollaringdan.**

**Dilbandlaring — yangroq so‘zing, yorug‘ yuzing, Uch million muxlilaring — o‘g‘il-qizig, Bir xalqu bir Vatan bo‘lib ulg‘aygusi, Jo‘juqlaring — qandu asal, bollaringdan.**

**She‘rim balki bir kun ketar tahrirlanib, Men yuz yillar yursam bo‘lgay faxrlanib, O‘zbekiston, otajonim, bolajonim — Jahon maydonida urgan gollaringdan!**

Sirojiddin SAYYID,  
O‘zbekiston xalq shoiri

# O'ZBEKISTON VA ALBANIYA O'ZARO MANFAATLI SIYOSIY-IQTISODIY SHERIKLIKNI UZOQ MUDDATLI KUN TARTIBINI SHAKLLANTIRMOQDA

2026-yil 16-17-iyun kunlari Albaniya Prezidenti Bayram Begay O'zbekistonga rasmiy tashrif buyuradi va V Toshkent xalqaro investitsiya forumida (TXIF) ishtirok etadi.



So'nggi yillarda O'zbekiston va Albaniya ikki tomonlama munosabatlarni faollashtirish hamda keng ko'lami yo'nalishlarda hamkorlikni kengaytirishga intilayotganini namoyon etmoqda. Geografik uzoqlikka qaramay, tomonlar siyosiy muloqotni, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

O'zbekiston va Albaniya o'rtasida diplomatik munosabatlar 1993-yil 23-noyabrda o'rnatilgan. Hozirgi vaqtda rasmiy aloqalar O'zbekistonning Venadagi va Albaniyaning Moskvadagi elchixonalari orqali amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda ikki davlat o'rtasidagi siyosiy aloqalar sezilarli darajada faollashdi. 2025-yil 23-sentabr kuni Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasi doirasida O'zbekiston Prezidentining Albaniya Prezidenti Bayram Begay bilan o'tkazgan muzokaralari ikki tomonlama munosabatlar rivojida muhim bosqich bo'ldi.

Uchrashuvda siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi. Siyosiy muloqot va iqtisodiy hamkorlikning barqaror mexanizmlarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Muzokaralar yakunida tomonlar O'zbekiston — Albaniya munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishdan o'zaro manfaatdor ekanini ta'kidladilar.

So'nggi yillarda O'zbekiston — Albaniya hamkorligining rivojlanishi ikki mamlakat tashqi

siyosat idoralari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning faollashuvi bilan birga kechmoqda.

2024-yil 24-sentabr kuni Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining 79-sessiyasi doirasida O'zbekiston tashqi ishlar vazirining Albaniya Yevropa va tashqi ishlar vaziri Igli Hasani bilan uchrashuvi bu boradagi muhim qadam bo'ldi. Muzokaralar yakunida diplomatik pasport egalari uchun vizasiz rejim to'g'risidagi hukumatlararo bitim imzolandi va bu ikki tomonlama munosabatlarning shartnomaviy-huquqiy bazasini takomillashtirishga salmoqli hissa qo'shdi.

O'zbekiston tashqi siyosat idorasi rahbarining 2025-yil 25-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasi doirasida Albaniyaning Yevropa va tashqi ishlar vaziri Elisa Spiropali bilan o'tkazgan uchrashuvidan so'ng hamkorlik yanada rivojlandi. Muzokaralar chog'ida ikki mamlakat Tashqi ishlar vazirligi o'rtasida muntazam siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazishi va idoralararo hamkorlikni yanada mustahkamlashni nazarda tutuvchi Hamkorlik to'g'risidagi bayonnomani imzolandi.

Mazkur hujjatlar imzolaniishi ikki tomonlama hamkorlikning qo'shimcha institutsional mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qildi. Erisilgan kelishuvlarning amaliy natijasi o'laroq, 2026-yil 30-aprelda Tashqi ishlar vazirligi o'rtasida O'zbekiston — Albaniya siyosiy maslahatlashuvlarining birinchi davrasi o'tkazildi.

Onlayn formatda o'tgan maslahatlashuvlar ikki davlat o'rtasida muntazam siyosiy muloqotni

yo'lga qo'yishda muhim bosqich bo'ldi. Bunday mexanizm yaratilishi ikki tomonlama kun tartibidagi dolzarb masalalarni muhokama qilish va o'zaro manfaatli masalalar bo'yicha yondashuvlarni muvofiqlashtirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekiston — Albaniya munosabatlari tarkibida siyosiy muloqot bilan bir qatorda savdo-iqtisodiy hamkorlik muhim o'rin tutadi, biroq u hozirgi kunda mavjud salohiyatga mos kelmaydi.

O'zaro savdo hajmi nisbatan kamligiga qaramay, O'zbekiston va Albaniya hamkorlikni kengaytirishning ustuvor yo'nalishlari, jumladan, investitsiya sohasida birgalikda ishlamoqda. Shu nuqtayi nazardan, Albaniya Prezidenti Bayram Begayning V Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi ishtiroki ikki mamlakat ishbarmon doiralari uchun o'zaro manfaatli aloqalarni kuchaytirish zarurligiga muhim ishora bo'ldi.

Tomonlar fikricha, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, raqobatbardosh mahsulotlar yetkazib berishni ko'paytirish, xizmat ko'rsatish sohasida hamkorlikni kengaytirish, ikki mamlakat ishbarmon doiralari o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash o'zaro hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari bo'lishi mumkin. Madaniy-gumanitar almashinuvni yanada rivojlantirish va xalqaro maydonlarda hamkorlikni mustahkamlash ham muhim ahamiyatga ega.

Siyosiy muloqotning izchil faollashuvi, shartnomaviy-huquqiy bazaning takomillashuvi va idoralararo muntazam maslahatlashuvlar mexanizmlari ishga tushirilishi ikki tomonlama munosabatlarni yanada chuqurlashtirish uchun qulay sharoit yaratmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston va Albaniya teng huquqlilik, o'zaro hurmat va bir-birining manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslangan ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdor ekanini namoyon etmoqda.

Ikki tomonlama muloqotning izchil rivojlanishi mamlakatlarimiz o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga va turli sohalarida amaliy hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar ochishga xizmat qilishi kutilmoqda.

“Dunyo” AA

Turkiyaning Hatay viloyati Arsuz tumanida O'zbekiston tomonidan bunyod etilgan turar joy majmuasi negizida tashkil etilgan “O'zbekiston mahallasi”, Shavkat Mirziyoyev bulvari hamda Toshkent va Samarqand ko'chalarining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

## HATAY VILOYATIDA “O'ZBEKISTON MAHALLASI” TANTANALI RAVISHDA OCHILDI

Marosimda O'zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi spikeri Nuriddin Isoilov boshchiligidagi delegatsiya, Xorazm viloyati hokimi Jo'rabek Rahimov, Turkiya Buyuk millat majlisi raisi Numan Kurtulmush, Hatay viloyati hokimi Mustafa Masatli, mahalliy rasmiylar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tadbir davomida Numan Kurtulmush ushbu tashabbus Turkiya xalqi va davlatining o'zbek xalqiga samimiy minnatdorligi ifodasi ekanini ta'kidladilar.

— Arsuzda O'zbekistonning buyuk tarixi va madaniyatini ifoda etuvchi nomlarning abadiylashtirilishi ikki birodar xalqning do'stlik ramzidir. Bu qadam og'ir kunlarda biz bilan yelkama-yelka turgan o'zbek xalqining turk birodarlariga bildirilgan yuksak ehtiromdan dalolat beradi, — dedi Numan Kurtulmush.

Tadbir ishtirokchilari O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini alohida e'tirof etdi. Ushbu markaz turkiy dunyoning muhim ma'naviy va ilmiy markazlaridan biri sifatida ta'riflandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda Yangi Rennanss g'oyasi yuqori natijalar berayotgani qayd etildi.

Hatay viloyati hokimi Mustafa Masatli 2023-yil 6-fevraldagi halokatli



zilizilgan keyin O'zbekiston ko'rsatgan amaliy yordamini turk xalqi hech qachon unutmasligini ta'kidladilar.

— Hatay aholisi nomidan do'st va qardosh o'zbek xalqiga chuqur minnatdorlik bildiraman. O'zbekiston Prezidentining joriy yil yanvar oyidagi Anqaraga tashrifi chog'ida rasman ochilgan ushbu turar joy majmuasida “O'zbekiston mahallasi” nomi berilgani xalqlarimiz o'rtasidagi abadiy do'stlikning yorqin namunasidir, — dedi hokim.

“Dunyo” AA



## Forum oldidan

Hozirgi global iqtisodiyot sharoitida mamlakatlarning raqobatbardoshligi ko'p jihatdan investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Investitsiyalar nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, aholi bandligini ta'minlash va ijtimoiy farovonlikni yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, Toshkent xalqaro investitsiya forumi mamlakatimizning iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim voqealardan biri hisoblanadi.

## XALQARO HAMKORLIK VA IJTIMOY BARQARORLIK ASOSI



Erkinjon BOTIROV, iqtisodiyot fanlari doktori

Mazkur forum O'zbekistonning investitsiyaviy salohiyatini xalqaro hamjamiyatga namoyish etish, xorijiy investorlar bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot o'rnatish va yangi iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Investitsiya forumlari dunyoning ko'plab davlatlarida iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishning samarali mexanizmi sifatida e'tirof etilgan. Yurtimizdagi mazkur forumning asosiy maqsadi iqtisodiyotning turli sohalariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xalqaro biznes vakillari bilan hamkorlikni mustahkamlash hamda iqtisodiy rivojlanishning yangi yo'nalishlarini belgilashdan iborat.

Forum doirasida energetika, neft-gaz sanoati, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat ishlab chiqarish, transport va logistika, qurilish, turizm hamda raqamli iqtisodiyot sohalaridagi istiqbolli investitsiya loyihalari taqdim qilinishi rejalashtirilgan. Shuningdek, davlat tashkilotlari, mahalliy tadbirkorlar va xalqaro kompaniyalar o'rtasida ikki tomonlama uchrashuvlar tashkil qilinishi kutilmoqda.

Forumning yana bir muhim vazifasi mamlakatning investitsiya siyosati, qonunchilik bazasi va biznes yuritish uchun yaratilgan qulay muhit haqida xalqaro hamjamiyatga keng ma'lumot berishdan iborat. Bu esa xorijiy sarmoyadorlarning iqtisodiyotimizga qiziqishini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Yurtimizdagi iqtisodiy islohotlar xalqaro ekspertlar tomonidan ijobiy baholanoqda. Investitsiya muhitini yaxshilash, xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, sud-huquq tizimini takomillashtirish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha ishlar mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish, soliq yukini qisqartirish va xorijiy investorlar uchun qator imtiyozlar joriy qilinishi iqtisodiyotimizga yirik investitsiyalar jalb qilish imkonini bermoqda. Bunday sharoitda investitsiya forumi o'tkazilishi islohotlar natijalarini namoyish etish hamda yangi investorlarni jalb qilish uchun muhim maydon vazifasini o'taydi.

Investitsiya forumi mamlakat iqtisodiyoti uchun qator muhim iqtisodiy natijalarga zamin hozirlaydi.

Avvalo, forum orqali mamlakatga yangi moliyaviy resurslar jalb qilinadi. Bu mablag' sanoat korxonalarini modernizatsiyalash, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish va infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Ikkinchidan, xorijiy investitsiyalar orqali zamonaviy texnologiya va innovatsiya kirib keladi. Bu esa mahalliy korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Uchinchidan, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortib, mamlakatning tashqi iqtisodiy faolligi kuchayadi. Natijada eksport tushumlari ko'payib, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi.

To'rtinchidan, forum doirasida imzolaniishi kutilayotgan investitsiya kelishuvlari mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Investitsiyalarning ijtimoiy ahamiyati iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmaydi. Yangi investitsiya loyihalari aholi turmush darajasi yaxshilanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yangi korxonalar va ishlab chiqarish obyektlari ochilishi minglab yangi ish o'rinlari yaratadi. Bu, ayniqsa, yoshlar

muassasalari ham rivojlanadi. Bu esa aholining hayot sifati oshishiga olib keladi.

Investitsiya forumining siyosiy ahamiyati ham juda katta. Bunday tadbirlar mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish va tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Forumda turli davlatlar hukumatlari, xalqaro moliya institutlari, transmilliy korporatsiyalar va biznes doiralari vakillari ishtirok etishi O'zbekistonning ochiq va konstruktiv tashqi siyosat yuritayotganini namoyon etadi.

Forum mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, huquqiy kafolatlardan va investorlar manfaatlarini himoya qilish tizimi haqida xalqaro hamjamiyatda ijobiy tasavvur shakllantiradi. Bu esa kelgusida mamlakatga ishonchni mustahkamlab, investitsiyalar oqimi ko'payishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda iqtisodiy diplomatiya davlat tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Investitsiya forumi uning amaliy ko'rinishi sifatida milliy manfaatlarni xalqaro maydonda ilgari surish imkoniyatini yaratadi.

Investitsiya forumi faqat markaziy iqtisodiy loyihalarni emas, balki hududlarning iqtisodiy imkoniyatlarini ham keng namoyish qiladi. Har bir viloyatning sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm yoki xizmat ko'rsatish sohalaridagi salohiyati investorlarga taqdim etiladi.

Bu esa hududlarga to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jalb



bandligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bandlikning oshishi aholi daromadlari ko'payishiga va ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanishiga yo'l ochadi.

Xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik mahalliy mutaxassislarining kasbiy mahorati va bilimlarini oshirish imkonini beradi. Zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv tajribasi kirib kelishi inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Investitsiya loyihalari amalga oshirilayotgan hududlarda ijtimoiy infratuzilma — yo'llar, kommunikatsiya tarmoqlari, ta'lim va tibbiyot

qilinishiga, mahalliy tadbirkorlik rivoji va iqtisodiy faollik oshishiga zamin yaratadi. Natijada mamlakat hududlari o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish jarayoni jadallashadi.

Toshkentdagi forum xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlash, iqtisodiy diplomatiyani rivojlantirish va yangi O'zbekistonning ochiqlik hamda taraqqiyot siyosatini namoyon etish uchun muhim imkoniyatdir. Shu sababli investitsiya forumi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy jihatdan ham yurt taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim strategik tadbirdir.

## Yangi qonun

Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurash bugun butun dunyodagi eng jiddiy global muammolardan. Bu muammo yil sayin tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, bugun 60 milliondan ortiq odam giyohvandlik moddalariga qaram bo'lib yashamoqda. Har yili 500 mingga yaqin o'lim holati aynan og'ir iste'moli tufayli yuz beryapti. Bunday salbiy holat mamlakatimizda ham kuzatilmoqda.

Raqamli texnologiyalar davrida giyohvandlik moddalarini tarqatish usullari ham muttasil o'zgarib bormoqda. Bu esa narkojinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha yondashuvlarni davr talabi asosida takomillashtirib borishni taqozo etmoqda. Shunday ekan, bu illatni tag-tomiri bilan yo'q qilish mamlakatimizdagi har bir vazirlik va idora, shuningdek, har bir fuqarodan yuksak mas'uliyat va qat'iy murossasizlik talab etadi. Yurtimizda nafaqat giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish, balki bu illatni keltirib chiqaradigan sabab va omillarni bartaraf etishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Birgina o'tgan yili huquqni muhofaza qilish organlarining hamkorlikdagi sa'y-harakati tufayli 15 mingdan ortiq narkojinoyat, 14 ta narkolaboratoriya va qadoqlash joyi aniqlangan. Ushbu jinoyatlarni sodir etgan 11 mingdan ortiq

shaxs jinoyi javobgarlikka tortilib, noqonuniy muomaladan olingan 3 tonnadon ortiq giyohvandlik vositalari va 2 million donadan ortiq kuchli ta'sir qiluvchi modda hamda umumiy hisobda 26 gektar maydonda yetishtirilgan giyohvandlik o'simliklari belgilangan tartibda yo'q qilingan.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 3 noyabrda “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni ham ayni shu maqsadlarga qaratilgan. U mamlakatimizda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha 2024-2028-yillarga mo'ljallangan milliy strategiyani ustuvor maqsadlariga erishish, giyohvandlik va uyushgan narkojinoyatchilikka qarshi kurashishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish orqali aholini, birinchi navbatda,

## GIYOHVANDLIK VA NARKOJINOYATLARGA QARSHI JAZO CHORALARI KUCHAYTIRILDI

yoshlar salomatligini hamda millat genofondini samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qamrab oladi.

Shunga muvofiq, narkojinoyatchilikka qarshi tizimli kurashilmoqda. Xususan, Giyohvandlik va narkojinoyatlarning barvaqt oldini olish hamda ularga qarshi kurashish bo'yicha 2025-2026-yillarga mo'ljallangan kompleks amaliy harakatlar milliy dasturi jiroi izchil ta'minlanmoqda. Giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olishda yangi yondashuvlar joriy etilmoqda. Mazkur faoliyatni yanada takomillashtirish va yangi bosqichga olib chiqish — bugunning eng dolzarb masalalaridan.

Xalqimizda kasallikni davolaganing ko'ra, oldini olgan yaxshi degan naql bor. Shu ma'noda, aholi orasida bu illoga qarshi targ'ibot-tashviyotlar kuchaytirilmoqda. Ayniqsa, yosh avlod vakillarini bunday muhofaza qilish, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar tarqalishining oldini olish maqsadida kompleks tezkor-profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda.

Muhimi, giyohvandlikka qarshi kurashishda ilmiy yondashuvlar, moddiy-texnik baza va ekspert-kriminalistika sohasi takomillashmoqda. Jumladan, sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida ishlaydigan maxsus dasturlar,

ma'lumotlar tizimi ishlab chiqilyapti.

Davlatimiz rahbari 11-iyun kuni aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlikdan himoya qilish, shuningdek, yo'l harakati ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi. Taqdimotda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning muqobilari hamda kuchli ta'sir qiluvchi dromomelaning qonunga xilof muomalasi uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan qonun mazmun-mohiyati haqida ma'lumot berildi.

— Yangi qonun bilan narkojinoyatchilikka jinoyi-huquqiy mexanizmlar orqali qarshi kurashish faoliyatini muloqot yangi bosqichga olib chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga “Aholi salomatligi va genofondiga qarshi jinoyatlar” nomli yangi bob kiritilmoqda, — deydi Narkotiklar va o'qotar qurollarni nazorat qilish agentligi direktori vazifasini bajaruvchi Farhod Hasanov. — Ushbu bobdagi qilmishlar uchun javobgarlik choralari kuchaytirildi. Shuningdek, narkojinoyatlarning zamonaviy usul va shakllari inobatga olinib, g'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish, narkotiklarning noqonuniy muomalasiga rahnamolik qilish, bangixona tashkil etish kabi

qilmishlar uchun alohida javobgarlik belgilandi. Shuningdek, 10 dan ortiq xavfli qilmish bo'yicha jazo choralari o'irlashtirildi. Xususan, bu turdagi jinoyat qayta sodir etilishining oldini olish maqsadida o'ta'ing turdagi ayrim narkojinoyatlar uchun jazoni o'tashdan muddatidan oldin shartli ozod qilish tartibi qo'llanmasligi belgilandi. Narkotiklarni ta'lim tashkilotlarida, ozodlikdan mahrum qilingan jaylarda, internet tarmoqlarida yoki transmilliy usullarda muomalaga kiritganlik uchun jazo keskin o'irlashtirildi. Voyaga yetmagan shaxslarni narkotik iste'mol qilishga jalb qilganlik uchun to'g'ridan to'g'ri jinoyi javobgarlik belgilanib, aynan ta'lim tashkilotlari, talabalar yotoqxonalari, bolalar oromgohlaridagi yoki ularga tutash hududlarda iste'mol qilishga jalb qilganlik uchun 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi kiritildi.

Davlatimiz rahbari ushbu qonun narkojinoyatchilikka qarshi kurashishni yangi bosqichga olib chiqish, aholi salomatligi va millat genofondini himoya qilishda muhim huquqiy asos bo'lishini ta'kidladilar hamda uni imzoladi. Taqdimotda idoralararo ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan “Narkotiklar va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar to'g'risida”gi qonun loyihasi haqida ham axborot berildi.

Yangi qonun loyihasida davlat siyosatining 7 asosiy yo'nalishi belgilanmoqda. Ular orasida aholi, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarda giyohvandlikka qarshi immunitetni shakllantirish, internet orqali sodir etilayotgan narkojinoyatlarga barham berish, giyohvandlikning barvaqt profilaktikasi, diagnostikasi, davolash va tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya tizimini takomillashtirish kabi choralar mavjud.

Loyihada narkotiklar aylanmasi, giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishda bevosita ishtirok etuvchi 14 ta davlat organining vazifa va vakolatlari aniqlanishi nazarda tutilgan. Qonuniy muomaladagi moddalar ustidan davlat nazorati kuchaytirilib, ularni olib kirishdan rejalashtirilgan qilmishga bo'lgan jarayon uzluksiz elektron nazorat qilinadi.

Ushbu choralar mamlakatimizda narkojinoyatchilikka qarshi kurashishda jinoyat-huquqiy siyosatini tubdan o'zgartirish va bu turdagi jinoyatlarga qarshi kurash samaradorligini oshirish, voyaga yetmaganlar orasida giyohvandlikning oldini olish hamda ularni narkojinoyatlardan ishonchli muhofaza etishga xizmat qiladi.

Lutfulla SUVONOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

Yaratganga shukr, bugun yangi O'zbekistonda so'z va matbuot erkinligi, xolislik va adolat tamoyili tiklandi. Ijod ahliga e'tibor yuksak darajada. Bunga Prezidentimizning yaqinda madaniyat, san'at va adabiyot ahliga ko'rsatgan e'tibori yana bir yorqin dalil bo'ldi.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz\_official yuz.uz\_news yuz.uz\_news



Yangi O'zbekiston ruhi

KECHAGI SABOQLAR VA BUGUNGI NURAFSHON KUNLAR



Abdurasul JUMAQULOV, jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Bu, albatta, kechani yomonlash yoxud kimdir yomonat qilish uchun emas. Kecha — kecha edi. U o'tindi. Uning muvaffaqiyatlari ham, muammolari, yo'l qo'yilgan kamchiliklari ham kechagi kunningi. Maqsad esa bugunning qadriga yetish, ertamizning yanada yorug', farovon bo'lishiga hissa qo'shish. Buning uchun esa kecha yo'l qo'yilgan xatolarni qaytib qilmasligimiz, ulardan saboq chiqarishimiz lozim.

Inson bu dunyoda, albatta, erkin va ozod yashashni istaydi. Bu eng ulug' baxt. O'yulab ko'ring, bundan o'n yil avval mamlakatimizda so'z va matbuot erkinligi qanday edi? Mabodo biror nashrdan ozgina tanqidiy maqola e'lon qilinsa xudo biror e'fj orqali achchiqroq gap aytsa, xudo urdi, deyavering edi: tanqid obyektini emas, tanqid qiluvchi nishonga olindi. Shuning uchun hamma "aqli" bo'lib qolgan edi. Hech kim haq so'zni ayishga botinolmasdi. Bu qoidani buzganlar ham bo'lgandir. Lekin shuni aniqlik, undaylar tug'ilganiga pushaymon bo'lmaguncha tinch qo'yilmasdi.

Endi aytib, bu gaplar yolg'onmi? Axir hammasi haqiqat-ku. Prezidentimiz 2023-yili Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davomida bir guruh ziyolilar bilan suhbatlashar ekan, kechagi so'z erkinligi haqida, ochiqlik masalasida quyidagi mazmunda gapirgan edilar:

"Yopiq davlat bo'lib, ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlamaganimiz uchun xalqning ovozi eshitilmadi... Erkinlik nafasi yoqadimi? Menga yoqadi... yana oldingidek... bo'lmaydimi? Biz niyatimizga yetdikmi? Bizning ikki bo'ldimi? Shuning uchun erkinlik nafasini, ommaviy axborot vositalarini do'st bilamiz. Gapirsin, adolatlarni gapirsin. Tanqid qilsin, to'g'ri tanqid bo'lsin. Shu qishloqqa, maktabga, ta'limga foydasi bo'lsa, nur ustiga nur. Men har kuni o'qiyman, internetni ham o'qiyman. Kim qanday gapirganini vaqtinchi boricha, qo'limga qalam olib, o'zinga yozib olaman. Baribir 10 ta fikrdan 9 tasi to'g'ri bo'lib chiqadi. Bu to'g'ri yo'nalishmi? Agar bizda ommaviy axborot vositalari yopiq bo'lsa, sizlarni ham hech kim eshitmaydi".

Mamlakatimiz yetakchisining bunday ochiq va samimiy fikrlari barcha ziyolilar, xalqimizni, jumladan, qalam ahlini ham birdek juda-juda quvontiradi.

Yaratganga shukr, bugun yangi O'zbekistonda so'z va matbuot erkinligi, xolislik va adolat tamoyili tiklandi. Ijod ahliga e'tibor yuksak darajada. Bunga Prezidentimizning yaqinda madaniyat, san'at va adabiyot ahliga ko'rsatgan e'tibori yana bir yorqin dalil bo'ldi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng muayyan vaqt o'tib yurtimizda avtomashina ishlab chiqarilishi, O'zbekiston o'z avtomobiliga ega bo'lishi haqida ko'p bong urilgan edi. Albatta, bundan xursand bo'lganimiz. Nega quvonmaylik, vatanimiz dunyoda avtomobil ishlab chiqaradigan mamlakatlardan biriga aylangan bo'lsa?! Lekin o'zimizda ishlab chiqarilgan avtomobillarga ega bo'lish uchun yurtdoshlarimiz ne qiyinchiliklarga ham uchraganini hech kim unutan bo'lmasa kerak.

Sababi o'zimizda ishlab chiqarilgan mashinalar xalqimizga milliy valyutimiz — so'mda emas, dollarda sotilgan paytlar bo'ldi. Chet el valyutisini esa odamlar ko'pincha boshqand emas, ko'chadan — qora bozordan sotib olinga majbur edilar. Juda katta muammo edi-da bular. Bu, birinchiidan.

Ikkinchidan, banklardagi valyuta ayiriboshlash siyosati bir guruh korxonalarimiz qo'lida bo'lib, ochiqdan-ochiq uzoq yillar korrupsiya sxemaga aylanib ulangan edi. Xalqimiz uchun esa chetdan qulayroq ushbu mashina xarid qilish yo'li yopilgan, istaysizmi-yo'qmi, o'zimizda chiqqan mashinalar uchun avvaldan qanchadir qiymatini to'lab qo'yib, mashina chiqarishi bir yil, hatto undan ham ortiq kutish odatiy holga aylangan. Hatto ayrim bozor chaqqon rusumi mashinalarga "shapka" berish kerak bo'lgani-chi? Shuni qiziq, avtomashinalar uchun navbat kelguncha, uning narxi bir-ikki bor o'zgarar, albatta, qimmatlashar, oldindan to'lab qo'yilgan esa hisobga olinmas, yana ustama narxni to'lab, avtobulog' egasi bo'lish "baxti" xuddi olimpiada g'olibi bo'lishdek mushkul vazifa edi.

Xo'sh, aytib, bu voqealarning qay bir jihatini gapirganda "kechagi kunningi yomonat qilish", deya olamiz?

Hammasi haqiqat emasmi?

Haqiqat shuki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari bo'lgach, bu bedodliklarning bariga barham berildi. Hozir mamlakatimizda avtomobil xarid qilish masalasida u paytlardagidek sun'iy navbatlar, aytaylik, yil bo'yi yana 60-70 foiz to'lovini oldindan amalga oshirish shart degan "majburiyat"lar yo'q-ku! Buni bugun ham tasavvur ham qilisha olmaydi yurtidoshlarimiz. Nega? Negaki sohada adolat mezonlari o'rnatib qo'yildi. Marhamat, avtomobilning istalgan rusumini bir kunda olib ketavering. Hatto ma'lum foizlarni to'lab, qolganini uch yilda yoki besh yilda to'lang!

Banklardan xorijiy valyuta xarid qilish masalasida-cha, bugungi kunda bu borada birorta muammo bormi? Bir paytlardagidek bir-ikki ming dollar sotib olish uchun ne-ne kazo-kazolarga uchrashish, tanish-bilish axtarish kerakmi? Yo'q, albatta!

O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim shu yil may oyida yetakchi nashrlarda e'lon qilgan "Riyosiz so'zlar" maqolasida quyidagi yozdi:

"Bozorga borasan. Har qadamda "dollar"ni lar shaykasi... Dollarning narxi rasmiy kursdan ikki barobar baland. Ko'r bo'lib olasan".

Xalq shoiri yana eslagandek, butun xalq — o'qituvchidan tortib, shifokorgacha, quruvchidan tortib, ijodkorlarga, avval pensionerlar shudog'am 10-15 kun kechib oladigan maoshini, pensiyasini 20-30 foizga naqladishirish uchun yana o'sha shahar olg'irlarga borganlari-chi, bu ham noto'g'rimi? Bular axir bundan bo'lg'g'i 10-11-yil avvalgi hayotimiz manzaralari emasmi?

Albatta, hech kim bu narsalarni eslagisi kelmaydi. Eslaganimiz ham tuzukdir, ehtimol. Chunki har eslaganda yuraklar zirqiradi, behtimori achilib ketasan...

Ayniqsa, yoshlarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish borasidagi turtli g'irromliklarni bugungi yoshlar bilishmas. Garchi ta'limdagi yangiliklar, ilg'or tajribalar, har xil test sinovlarining joriy etilgani yuksak shiorlanonand tang'ib-tashvii qilingan bo'lsa-da, aslida, manzara butunlay teskari edi. Buni hamma bildirdi. Shunday vaqtlar bo'ldiki, tanish-bilish, pora bilangina o'qishga kirish mumkinligini hatto maktab o'quvchilari ham tushunib qolgan.

Oliy ta'lim muassasalarida "bunker"lar tashkil etilar, bu "bunker"larda ertaga o'zlar ta'lim beradigan o'qituvchilar, hatto professorlar, fan doktorklari joylashar, qo'shimcha ravishda barcha adabiyotlar, qo'llanmalar bilan qurollangan holda "adolatli" test o'tayotgan xonalarda "baxti ro'yxat"ga ilingan abituriyentlarning sinov varaqlarini bexato ishlab berish bilan band bo'lishardi. Bunday odatda, endigina maktabning 10-sinfini bitirib kelgan ko'p yurakli o'g'il-qizlarimiz bilan nohaqaracha kurashilar, yoshlar esa jamiyatning bunday nohaq, kir o'yinlariga duch kelib, shaffof orzu-umidlari chilparchin bo'lardi.

Aynan shu masalada uzoqqa bormay, o'zimizning oilamda kechgan voqealarni eslay. 2007-yili bo'lsa kerak adashmasam, o'g'lim O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Iltisnii tugatib, Toshkentdagi obro'li universitetlardan biriga hujjatlarini topshirdi. Kechayu kunduz imtihonlarga tayyorgarlik ko'rdi. Qo'shimcha tayyorlov kurslariga qatnadi. Lekin... test natijalari e'lon qilindanda 174 ball (nazarimda, o'sha paytda ham bu yaxshi ko'rsatkich edi) olgani, lekin o'qishga kirishiga aqalli bir-ikki ball "yetmagani"ni ko'rib, ko'zida juda katta alam, nohaqlikka, nohololikka, adolatsizlikka bo'lgan yosh millatiga unda uning emas, mening butun vujudim yonib-kuyib ketgan edi. Shundan so'ng u mamlakatimizdagi xalqaro universitetlarning biriga hujjat topshirdi va hech qanday muammosi o'qishga qabul qilindi.

Afsuski, qizimning oliy o'quv yurtiga kirishi ham xuddi shunday muammoli kechgan. U poytaxtimizdagi tibbiyot yo'nalishiga oid oliy ta'lim muassasasiga kirishni maqsad qilgandi. Lekin izma-iz ikki yil test javobi e'lon qilindanda qandaydir 0,1 mi, 0,5 mi qiyiqim ballar "yetmay qolgan" uchun timsiz tayyorgarlik ko'rganiga qaramay, o'qishga kira olmasdi. Shundan so'ng qiz bola bo'lsa-da, noiloj Moskva shahridagi tibbiyot yo'nalishi bo'yicha universitetga o'qishga yubordik. Bir yil xorijda o'qigach, ne-ne azob-uqubatlari ham o'zimizdagi oliy o'quv yurtlaridan biriga o'qishini ko'chirishga muvaffaq bo'ldik. Shundayam o'zimiz Toshkentda yashasak-da, Samarqanddagi tibbiyot institutiga qayta ko'chirib berishgani uchun ham do'ppimizni osmonga otganmiz. Men shunga ishonamanki, mabodo farzandlarim bugun yurtimizdagi oliy ta'lim maskanlariga o'qishga kirish uchun sinovlarni



topshirishganlarida edi, hech shubhasiz, davlat granti asosida qabul qilingan bo'lar edi. Chunki bugun oliy ta'limdagi shaffolikka hammasi guvohimiz. Kechagi yaqin o'timishimizda esa ming-minglab yurtidoshlarimiz bu boradagi nohaqliklarga, adolatsizliklarga guvohlar.

Darhaqiqat, bugun ilm olaman, o'qiyman degan yoshlarda yuqoridagidek muammolarning qaysi biri bor?

Insof bilan aytganda, Prezidentimiz oliy ta'lim sohasidagi chirib ketgan unsurlarni yo'q qildi. To'liq shaffof tizim yaratildi. O'zbekistonda keyingi yillarda yuzga yaqin yangi oliy ta'lim muassasasi ochildi. Qancha ilg'or mamlakatlarning oliy ta'lim maskanlari filiallari tashkil etildi. Farzandlarimizning qo'lga kiritayotgan, jahonni hayratga solayotgan muvaffaqiyatlari, demakki, o'z-o'zidan ro'yobga chiqayotgani yo'q.

Xalqimiz nihoyatda mehnatkash, ishdan qochmaydigan xalq. Lekin ana shunday og'ir mehnatli bajaradigan el, sizningcha, nima uchun mustaqillikka erishganidan keyin ham o'sha avvalgi sobiq shoh'rolar davridagidek paxta dalalariga haydalar edi?

Negaki Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev iqtidorga kelguncha talabalar ham, maktab o'quvchilariyu muallimlaridan tortib, davlat tashkilot-korxonalarida ishlovchilar, xullas, hamma-hammani xuddi "yoppasiga frontga" deganlaridek, paxta yig'im-terimiga safarbar qilish to'xtamadi. Shu asnoda dunyo bo'ylab "bolalar mehnatidan foydalanish" degan ayb qo'yilib, ma'lum sanksiyalarga mahkum etilmaganmidik?!

Masalan, subhatlarning birida taniqli noshir, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, taqdir taqozosiga ko'ra qo'shni Qirg'izistonning O'sh viloyatida dunyoga kelgan Anhor Ahmedov bunday degan edi:

"Ota-onamiz, hamma qarindosh-urug'larimiz O'shda yashagandan keyin ularning to'yi, turli quvonchli kunlarida borishga harakat qilardik. Lekin buning sira iloji yo'q edi. Hatto eng yaqinlarimizdan kimdir vafot etganida ham borib-kelishga ruxsat oloilmaganmiz..."

Aynan shu mavzuda taniqli jurnalist Olimjon O'sarov gurlunglarining birida juda qiziq bir holatni gapirgani yodda qolgan: "To'g'risi, bugun bu voqeaga o'zimizning ham ishongim kelmaydi. Bilasiz, Samarqand viloyatining Bulung'ur va Urgut tumanlari Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Shunda hovlisida stol-stul qo'yilgan ham foydalaniladi. Keyin haydovchiga hujjatlarini qaytarib olish uchun "talon" — qo'lbo'l usulda yozilgan qo'g'ach beriladi, vaqt ketadi. Endi aytib, uzoq manzila chog'langan bu shor'peshona haydovchining, yo'lovchilarning ahvoli qanday bo'ladi?..."

Hu, bu holatlar odatiy bo'lib qolgandi. Xuddi shuningdek, poytaxtdan vodiya chog'langan yo'lovchilar dovonda bittadan tekshirilgan, mabodo kimningdir pasporti esidan chiqib qolib ketgan bo'lsa-chi, tamom, iziga qaytishga majbur bo'lar edi. To'g'ri, bunday harakatlar bir qarashda siyosat, odamlar xavfsizligi uchundek tuyulardi. Lekin aslida bu erki davrlarda qolib ketgan qatol tuzumning ko'rinishlaridan boshqa narsa emasdi. Odamlarni ezish, qo'rquvda ushlashning oddiy elementlari o'xshardi. Mana, 9-10 yil bo'ldiki, bunday bedodliklar yo'q. Bariga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yurimatog' qalqparvar siyosat barham bera oldi! Bugun mamlakatimizdagi bunyodkorliklar, o'zgarishlar haqida butun dunyo matbuotida ham

borishni, quvonchli kunida yonlarida shunchalar istagan, ovozi chiqmasa-da, qadoq qo'llari bilan artayotgan ko'z-yoshlari buni aytib turardi. Ammo nachora, o'rta chegaraga bor...

Ana shunday yonma-yon, quda-andali qishloqlar ahli hatto bir-birlarining to'yi yoki azasiga ham borib-kelolmasdi. Chegaralar ochilgach, yana avvalgidek do'stona aloqalar yo'lga qo'yildi. Odamlar bordi-keldi qila boshladi, to'y-azada birga bo'lishi, bir-birining mehriqona qondi. Buning uchun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevdan qo'shni Tojikistonga qarashli qishloq ahli ham, o'zimizning qorako'zlar ham shunchalar mamnun ediki, buni so'z bilan ta'riflab berolmayman".

Bugun bu singari muammolar ortda qoldi. Qo'ni-qo'shni respublikalardagi yaqinlar bilan bordi-keldi qilish, qiz olib, qiz berish, to'y-larda ishtirok etish yo'lga qo'yildi...

Yangi O'zbekistondagi islohotlar qamrovi juda keng. Aytaylik, Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari bo'lguniga qadar oddiy odamlar tugul mas'ul vazifalarga ishlaydiganlarning hammasi ham "davlat xizmatlari" degan tushunchani bilmasdi, desak xato bo'lmaydi. Prezidentimiz tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan "davlat xizmatlari" tizimida millionlab fuqarolarning yumushi sanoqli daqiqlarda hal bo'lmoqda.

Bundan oldin-chi? Aqalli fuqarolik pasporti yoki bironma ma'lumotomani olish, uy-yo'xud boshqa mulki rasmiylashtirish uchun qancha yugur-yugur, necha kunlab, kerak bo'lsa, haftalab, oylab vaqt ketardi. Eng yomoni, har qadanda bu yumushlarni ado qilish ilinjida korrupsiya holatlariga deyarli ko'nikib ketilgan. Albatta, tanish-bilish qilmassay yoki "cho'tali" uzatilmasa, sarson-sargardon bo'lish tayin edi.

Kecha yo'llarda har qadamda turli postlar, yo'to'sar kuchlar bemalol yurishga yo'l qo'yilgan bo'lsa, bugun xalqimizni, agar yo'l qoidalarni buzmasa, hech kim to'xtatib, ovorayu saron qilishga botina olayotgani yo'q. To'g'ri, bugun yo'llarda radalar ko'pligidan shikoyat qilimiz. Lekin bu ham yo'l qoidalarga amal qilish, haydovchilar, yo'lovchilarning xavfsizligi uchun majburiy chorasi holda.

Xo'sh, bundan avval-chi? Birgina Surxondaryodan Toshkentga yoki Samarqandga borish qanday kechar edi? Men bu haqda bundan ancha yillar avval yozgan maqolalarimning birida bunday holatlarni qalqama olgan edim:

"Aytaylik, Termiz shahridan Toshkentga Mashinada yo'lga chiqingiz. Viloyat markazidan Qashqadaryo viloyatiga o'tguncha, yo'ni bir viloyatdan ikkinchi viloyatga borungingizcha 5-6 joydagi postlarda tekshirilasiz. YPX postlaridan tashqari oraliq yo'llardagi yashirinib turadigan yana necha-necha YPX xodimlari ham sizga peshov chiqadi. Yo'lga yursangiz, shunday fikrga kelishingiz tayin: bularning maqsadi nima ekan, yo'lovchilarning xavfsizligini yo nima qilib bo'lsa-da, ularning biror xatosini topib jazolashmi? Ayniqsa, Boysun tumanidagi Darband postida ancha yillar bunday hech qayerda va hech qachon bo'lmagan bir tartib joriy etilgan. Bu postga yetib kelgan har bir avtomobil to'xtatilib, hamma yo'lovchilar tushiriladi. Yulklari bilan! Bittadan, xuddi xorijiy yurtga chiqib ketayotganingizdek yuklaringiz terminaldan o'tkaziladi. Bunda yosh bolali ayollar, qariyalarning ahvoli ko'ring. Soatlab vaqt yo'qotadi. Qancha qirg'iz, baqir-chaqir, asablar temirdan bo'lsa ham erib ketadi. Avtomashinalar esa massux maydonchaga kiritilib, haydovchilarning hujjatlari olib qo'yiladi. Turnaqator mashinalar navbatma-navbat ko'zdan kechiriladi. Bu yerda hatto iskovuchi tizimidan ham foydalaniladi. Keyin haydovchiga hujjatlarini qaytarib olish uchun "talon" — qo'lbo'l usulda yozilgan qo'g'ach beriladi, vaqt ketadi. Endi aytib, uzoq manzila chog'langan bu shor'peshona haydovchining, yo'lovchilarning ahvoli qanday bo'ladi?..."

Hu, bu holatlar odatiy bo'lib qolgandi. Xuddi shuningdek, poytaxtdan vodiya chog'langan yo'lovchilar dovonda bittadan tekshirilgan, mabodo kimningdir pasporti esidan chiqib qolib ketgan bo'lsa-chi, tamom, iziga qaytishga majbur bo'lar edi. To'g'ri, bunday harakatlar bir qarashda siyosat, odamlar xavfsizligi uchundek tuyulardi. Lekin aslida bu erki davrlarda qolib ketgan qatol tuzumning ko'rinishlaridan boshqa narsa emasdi. Odamlarni ezish, qo'rquvda ushlashning oddiy elementlari o'xshardi.

Mana, 9-10 yil bo'ldiki, bunday bedodliklar yo'q. Bariga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yurimatog' qalqparvar siyosat barham bera oldi! Bugun mamlakatimizdagi bunyodkorliklar, o'zgarishlar haqida butun dunyo matbuotida ham

yozilmoqda, haqli e'tirof etilmog'ada. Yaqinda internet tarmog'ida xorijdan yurimizga kelgan bir qancha odamlarning taassurotini eshitib qoldim. Ularning so'zlari shu qadar samimiy, ko'tarinki ediki, ochig'i, juda faxrlanib ketdim. Ular Toshkentda barpo etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi hamda Samarqanddagi Imom Buxoriy majmuasi haqida so'zlardi. Mehmonlarning fikricha, O'zbekistonda milliy merosga, bo'qiy qadriyatlariga, ulug' qadamjolarga e'tibor dunyo ahlini hayratga solmog'ada. Islom sivilizatsiyasi markazini jahondagi yetti mo'jizaning biri deb ataladigan Tojmahalg mengazshibdi.

O'tgan yili 26-dekabr kuni Prezidentimiz Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatoma yo'llagan edi. Unda men ham ishtirok etgandim. Murojaatomani tinglab, qalim hapriqib ketdi o'shanda. Murojaatoma 2025-yilning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy manzarasini to'la-to'kis tahlil egan muhim hujjatgina emas, balki mamlakatimizda yaqin besh yilda, ya'ni 2030-yilga qadar ro'yobga chiqariladigan ustuvor vazifalar dasturining taqdimoti bo'ldi.

Unda davlatimiz rahbari qanchalik og'ir bo'lmasin, yurtimizda boshlangan demokratik islohotlar ko'zda tutilgan natijalarni berganini alohida ta'kidladi. Shu jumladan, 2025-yilni "murakkab yil" deb ta'riflagani bejiz emas edi. Chunki bugungi alg'ov-dalg'ov davrda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, xalqning yashash tarzini yuksaltirish, iqtisodiy imkoniyatlarni oshirishning o'zi murakkab jarayon bo'lib bormog'ada.

"E'tibor bering. Bundan to'qqiz yil oldin iqtisodiyotimiz hajmini 100 milliard dollarga yetkazish biz uchun juda katta marra bo'lib ko'rinar edi. Bu yil tariximizda birinchi marta yalpi ichki mahsulotimiz 145 milliard dollardan oshdi", dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari bunday yuksak natijalar xalqimizning ulkan ishlarga qodir ekaniga yaqqol misol ekanini ta'kidladi.

Darhaqiqat, ulug' shoir aytganidek, "Xalq to'loqindir, xalq dengizdir. Xalq kuchidir!". Bunga shubha yo'q. Shu bois, Prezidentimiz kuch birlikda, hamjihatlikda ekanini, "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar" naqlini esga oltirdi.

Eng muhim yutuqlarimiz haqida so'z yuritilganda, bugun Yangi O'zbekistonda dunyo tan olayotganiga emas, yurtimizga havas ko'zi bilan qarayotgani ham bor gap. Ayniqsa, O'zbekiston futbol klublari uchun tarixiy voqealik sodir bo'ldi. Milliy terma jamoamiz ilk bor jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Xudo xohlasa, o'zbek futbolchilari xalqimizning, Prezidentimizning ishonchini qozonadi. Chiroyli o'yinlar ko'rsatib, jahon chempionatida munosib ishtirok qiladi.

Bundan tashqari, aql va zakovat mashqi — shaxmat bo'yicha jahon kubogi musobaqalarida ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi. Yosh shaxmatchi Jahovir Sindorov erishgan yutuqlardan qanchovani Prezidentimiz u bilan bog'lanib, har tomonlama qo'llab-quvvatladi, unga rag'bat, kuch berdi. Bunday ulkan muvaffaqiyatlar yurtimizda sport sohasiga yuksak e'tibor tufayli emasmi? Albatta, shunday!

Tan olish joiz, Prezidentimiz rahbarligida barcha sohada juda katta ishlar, o'zgarishlar ro'yobga chiqmog'ada. Bularning o'zagi mamlakatdagi iqtisodiy, huquqiy, siyosiy ochiqlikka borib taqaladi. O'zingiz aytib, bundan atigi 10 yil avval biror tadbirkor, u xoh yirik samoyador, xoh biznesini endigina boshlagan inson bo'lsin, hozirgi paytdagidek emir-erkin ishlay olarmidi? Yo'q, albatta. Salgina boyigan insonga yo'li hatto qimmatroq avtoultoy mingan kishiga sabab bo'lsa, bo'lmasa "Sen buni qayerdan topding?!!" degan savol nazari bilan qaralgan. Shu bois, odamlar mulkini, mablag'ini ming xil usul bilan yashirishga harakat qilgan.

Yurtimizda tadbirkorlikka ko'rsatilayotgan e'tibor, aholini ish bilan ta'minlashga, kambag'allikni yo'q qilishga qaratilgan sa'y-harakatlar, g'amxo'rliklar bugungidek bo'lganmi? Yo'q, albatta!

Eng muhimi, bular hammasining ko'z o'ngimizda sodir bo'layotgan haqiqatlardir. Shu ma'noda, mamlakatimiz yetakchisi ona diyorimizda ta'lim, sog'lomlik saqlash, ekologik muammolar yechimini topish, ishsizlikni, kambag'allikni yanada kamaytirish, yoshlarni kasb-hunarga jalb etish, zamonaviy texnologiyalar, sun'iy intellekt kabi yo'nalishlardan samarali foydalanish va boshqa ko'pdan-ko'p sohalardagi muammolar, ularni bartaraf etish yuzasidan aniq vazifalarni o'rta taqashmoqda.

2026-yilning "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb nomlanishida ham juda katta ma'no va mazmun, ulug' maqsadlar mujassam. Zero, mahallalarimiz rivoj topsagina, jamiyatimiz yuksaladi. "Kelgusi yilda ilk bor mahalla infratuzilmasini rivojlantirish uchun 20 trillion so'mni viloyatlarimiz o'ziga beryapimiz. Eng muhimi, bu mablag'larning har bir so'mi aholimiz uchun qo'shilgan qiymat yaratishi zarur. Shu bois, bu pullar umuman qaysidir tuman uchun emas, balki mahallada ish o'rinalari yaratadigan, aholini daromadli qiladigan oliy loyihalarga yo'llaniladi", deyildi Murojaatomada.

Albatta, odamlarning ertangi kunga ishonchi, umidi adolatlari jamiyat barpo etilishida, inson haq-huquqlarining muqaddas deb bilinishidir. Tan olish kerak, bugun bu borada muammolar yo'q emas. Lekin avvallari mamlakatda prokuratura, ichki ishlar idorasi yoki sudga ishi tushgan kishi borak, ononlikcha o'zining haqligini isbotlay olmagani. Shuning uchun ham sudlarga oshirilgan ishlar hammasi "aybdorlik" tamg'asi bilan yakun topgan. Ishi suddami, bo'ldi, hech kimga oqlov hukmi chiqarilmasligi yolg'onmi yo' O'tgan 10 yilda huquq-tartib to'rtinchi sohada ham anchagina ijobiy qadamlar tashlandi. Minglab yurtdoshlarimiz sud zalidan oqlanib chiqayotgani shundan.

"Lavozimim, unvonim bor, menga hech kim tegmaydi deganlar adashadi. Qonun oldida hamma teng!". Bunday qat'iy talab mamlakatimiz rahbari tomonidan qo'yilganingni o'zi juda ko'p narsani anglatadi. Bu adolat va haqiqatga ishonch va umidni yanada mustahkamlamoqda.

Xalqimiz cheksiz xalima. Uning ming-ming yillik boyi tarixi, betimsol qadriyatlari, ulug' ayyollari, mufakkirlari, donishmandlari bor. Shunday ekan, o'z erkiga, istiqoliga 35 yil to'layotgan yurtimiz yaqin yillar ichida dunyoning eng oldi mamlakatlardan biriga aylana oladi. Zero, bugungi nurafshon kunlar, yangilanishlar shunday fikr qilishga asos beradi.



### Suhbat



**O'zbekistonning dunyodagi eng yirik moliyaviy markazlardan biri — Gongkong bozoriga kirib borishi tobora faollashmoqda. Keyingi vaqtlarda ushbu ma'muriy hudud bilan hamkorlik aloqalarimiz yanada rivojlanib borayotganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, ikki tomon ishbilarmolari o'rtasida yangi iqtisodiy ko'priklar paydo bo'lib, biznes munosabatlar uchun istiqbolli ehislar ochilmoqda.**

# O'ZBEKISTON — GONKONG ISHBILARMONLAR KENGASHI

## Umumiy manfaatlar birlashmoqda

Shu yilning may oy boshida yurtimiz tadbirkorlaridan iborat delegatsiya Xitoyning Gongkong shahri biznes tashrifni amalga oshirgan edi. Oradan bir oy o'tib, 4-5-iyun kunlari Gongkong va Xitoyning bir qancha shaharlari ishbilarmolari jamlangan katta delegatsiya Toshkent shahrida mehmon bo'ldi.

Tashrifning ilk kunig'oy davlatimiz rahbari Xitoy Xalq Respublikasi Syangan (Gongkong) maxsus ma'muriy hududi administratsiyasi rahbari Li Szyachao boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi. Uchrashuv davomida hamkorlik istiqboli va yo'nalish haqida so'z bordi. Asosiy jihati shundaki, ushbu iqtisodiy hamkorlik aloqalari hududlar miqyosida amalga oshirilyapti. Munosabatlarida iqtisodiyotning deyarli barcha yo'nalishlari nazarda tutilgan.

Poytaxtimizda o'tkazilgan O'zbekiston — Gongkong biznes muloqoti hamda B2B formatidagi uchrashuvlar o'zaro muloqotlarni amaliy bosqichga ko'tardi. Tashrif davomida qator hamkorlik memorandumlari imzolangan buning yaqqol isboti.

Hamkorlikning yangi bosqichga chiqib borayotgani ikki tomon uchun manfaatlidir. Buni gongkonglik ishbilarmolar ham ta'kidlaydilar. Ular mamlakatimizning iqtisodiy barqarorligi, faol o'sish ko'rsatkichlari, ochiqlik siyosatiga katta ishonch bilan qaramoqda. Qolaversa, O'zbekistonni Markaziy Osiyo bozoriga kirishdagi asosiy nuqta sifatida ko'ryapti. Yurtimizda xorijlik tadbirkor va investorlar uchun yaratilgan qulay muhit esa gongkonglik ishbilarmolarda katta qiziqish uyg'otmoqda.

Mehmonimiz — **Gongkong Savdoni rivojlantirish kengashi raisi, professor Frederik Ma** bilan delegatsiyaning yurtimizga tashrif qanday o'tgani haqida suhbatlashdik.

— **Avvalo, O'zbekistonga xush kelibsiz! Xitoylik tadbirkorlardan iborat katta delegatsiya, qolaversa, siz boshchiligidagi gongkonglik tadbirkorlarni bu gal yurtimizga boshlab kelgan asosiy sabab nima bo'ldi?**

— Ushbu tashrif Gongkong, Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan missiyaning bir qismi va albatta, O'zbekiston keyingi yillarda iqtisodiy o'sish va rivojlanish jihatidan Markaziy Osiyodagi eng yetakchi mamlakatlardan biriga aylangani bizni ushbu yurtga faol chorlamog'ga. Qolaversa, mintaqa davlatlari bilan birgalikda amalga oshirilayotgan "Bir makon — bir yo'l" tashabbusi loyihalari O'zbekiston tobora muhimroq o'rin egallamoqda. Shu bahona mamlakatda mehmon bo'lganidan xursandman.

Delegatsiyamiz bir necha kun davomida 20 dan ortiq tadbirda ishtirok etib, barcha yo'nalishlardagi hamkorlikni kengaytirish masalalarini muhokama qildi, qator loyihalar bilan tanishdi. E'tiborimiz ko'proq tadbirkorlar uchun yangi bozorlarni aniqlash, talab va taklifni o'rganish, investitsiyalarni jalb qilish kabi masalalar tordi. Ochig'i, O'zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlari biz uchun yangilik emas. Mamlakatda savdo, moliya, investitsiya, logistika, innovatsiyalar, umuman, barcha sohalarida kengroq hamkorlik uchun katta salohiyat mavjud. Gongkonglik tadbirkorlarni o'ziga tortayotgan jihat ham shunda. Qolaversa, O'zbekistonning yuqori iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari, faol islohotlari hamda strategik jihatdan geografik joylashuvi uni Gongkong uchun istiqbolli hamkorlik aylanitiradi. Biz aynan shu omil — imkoniyatlarimizni birlashtirishga intilyapmiz.

Delegatsiyamiz tarkibida asosan ishbilarmolar, xususan, Xitoy va Gongkong kompaniyalari vakillaridan iborat 70 nafardan ortiq biznes egasi jamlangandi. Ular mamlakat bozori, hududlar imkoniyatlari bilan tanishtirildi. Bu faol hamkorlikning boshlanishi, xolos.

Chunki gongkonglik tadbirkorlar O'zbekistonga yirik investitsiyalar kiritishga tayyor. Ularni qator yo'nalish-



lardagi loyihalar qiziqiryapti. Xususan, mamlakatda raqamli transformatsiya va texnologik ekotizimni rivojlantirish nihoyatda jadal ketayotgani ko'rindi. Shu bois, investorlarda ayni sohalar katta qiziqish uyg'otiyapti. Tashrif doirasida Toshkent shahridagi AT parkda bo'lib, texnologik hamkorlikka oid qator kelishuvlarni imzoladik. Moliyaviy xizmatlar, infrazuzilma, farmatsevtika, qayta tiklanuvchi energiya, logistika sohalarini ham tadbirkorlarimiz diqqatini tordirdi. Investorlar O'zbekistonning Yevrosiyo savdo yo'llari markazidagi strategik joylashuvi hamda mamlakat tobora logistika va transport markaziga aylaniy borayotganini alohida e'tirof etdi. Umuman, keyingi yillarda O'zbekiston gongkonglik tadbirkorlar uchun ham investitsion jozibador diyoraga aylandi. Bu mamlakatdagi yuqori iqtisodiy o'sish, katta salohiyatga ega ichki bozor, tobora ochiqlashib borayotgan investitsiya muhiti, xususiy sektor rivoji kabi ko'plab omillar bilan bog'liq. Har yili an'anaviy tarzda o'tkazilayotgan Toshkent xalqaro investitsiya forumida jahonning turli davlatidan minglab ishbilarmolar ishtirok etayotgani boisi ham shunda bo'lsa kerak.

— **Shu yilning may oyida o'zbekistonlik bir guruh tadbirkorlar Gongkongda bo'lib, iqtisodiy forum va sanoat ko'rgazmasida ishtirok etdi. Ikk bor Gongkongda O'zbekiston savdo uyi ochildi. Ya'ni aloqalar tobora chuqurlashyapti. Bugun ikki tomon ishbilarmolarini qanday umumiy manfaatlar birlashtirmoqda? O'zaro savdo aloqalarini rivojlantirish nima uchun muhim deb hisoblaysiz?**

— Avvalo, O'zbekiston azaldan Xitoyning muhim savdo hamkorlaridan bo'lib kelgan. Bu munosabatlar ildizi mamlakatimizni bog'lovchi asosiy ko'priklar — Buyuk ipak yo'li paydo bo'lganidan keyin rivojlanib, bugunga qadar mustahkamlanib borayotganiga guvohimiz. Ana endi bu hamkorlik hududlar miqyosida ham rivojlana boshladi. Albatta, jarayon o'z-o'zidan bo'lmayapti, buning uchun faol harakatlar qilinmoqda, hamkorlik loyihalari amalga oshirilyapti. Ayniqsa, o'tgan oyda O'zbekiston Bosh vaziri boshchiligidagi biznes delegatsiyaning Gongkongga tashrif ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar rivojida muhim bosqich bo'ldi. Gongkongda ilk bor o'tkazilgan "Made in Uzbekistan" ko'rgazmasi hamda O'zbekiston savdo uyining ochilishi har ikki tomon tadbirkorlari tomonidan nihoyatda iliq kutib olindi. Biz O'zbekistonning katta iqtisodiy salohiyatga ega ekani, ishlab chiqarish quvvatlari va mahalliy mahsulotlar bozorida yuqori potensial mavjudligiga guvoh bo'ldik. Sanoat ko'rgazmasi o'zbek biznesining qanchalik rivojlanib borayotganini yaqqol namoyon eta oldi.

Endi esa O'zbekiston — Gongkong ishbilarmolar kengashi tashkil etiladi. Kengash ikki mamlakat tadbirkorlari o'rtasida muntazam muloqotni yo'lga qo'yish, yangi biznes aloqalarini shakllantirish, qo'shma loyihalarni ilgari surish hamda savdo va investitsiya sohalaridagi hamkorlikni yanada kengaytirish uchun muhim platforma bo'lib xizmat qilishi ko'zda tutilgan. Shu orqali ikki tomon ishbilarmolarining doimiy aloqalari o'rnatilib, hamkorlikning yangi yo'nalishlari ishga tushiriladi. Bu O'zbekiston va Gongkong o'rtasida yangi va faol biznes muhiti shakllanyapti degani.

Kelgusida birgalikdagi biznes forumlar, B2B uchrashuvlar, tajriba almashish tadbirlari va savdo missiyalarini muntazam tashkil etish rejalashtirilgan. Bu mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdo hajmini oshirish va investitsiyaviy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Umuman, o'zaro aloqalarni markazdan markazga (hub-to-hub) hamkorlik modeli asosida kengaytirib borish nazarda tutilgan. Imzolangan kelishuvlarning ahamiyati esa nafaqat ularning sonida, balki qamrovning kengligida ko'rindadi. Bu kelishuvlar, yuqoridagi aytganimdek, amaliy hamkorlikning boshlanishi, xolos. Biz navbatdagi ishlarni faol davom ettirib, imzolangan memorandumlarni aniq loyihalar, investitsiyalar va uzoq muddatli biznes hamkorlikka aylantirishni maqsad qilmiz.

— **"Yangi O'zbekiston" muxbiri Iroda TOSHMATOVA suhbatlashdi.**

Ochig'i, juda ko'p biznes tadbirlarda bo'lganman, ammo O'zbekiston delegatsiyasi ishtirokida o'tgan uchrashuvlardagi kabi qatnashchilar soni va ishtiroqini yaqin yillarda kuzatmagan edim. Bu gongkonglik tadbirkorlarning o'zbekistonlik ishbilarmolar bilan faol ishlashga tayyorligini ko'rsatadi. Boisi, ular allaqachon O'zbekistonga Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng ko'p aholiga ega va yalpi ichki mahsulot o'sishi bo'yicha eng tez rivojlanayotgan mamlakat sifatida katta ishonch bilan qaramoqda.

O'zbekiston va Gongkong biznes doira vakillarini birlashtirayotgan jihat ham shu — o'zaro ishonchga asoslangan mustahkam hamkorlikni rivojlantirish, ikki tomon iqtisodiyoti bir-birini to'ldirishda faol ishtirok etishga qaratilgan. Har ikki bozordagi kompaniyalarni savdoni kengaytirish, investitsiya jalb qilish, ta'minot zanjirlarini faollashtirish, yangi bozorlarga chiqish kabi umumiy manfaatlar hamkorlikka undamoqda.

Xususan, Gongkong o'zbek kompaniyalariga xalqaro investorlarni jalb qilish, Xitoy va uning eng yirik shaharlari bozorlariga faol kirib borishga ko'maklashishi mumkin. Gongkong kompaniyalari uchun esa O'zbekistonning strategik joylashuvi va tobora o'sib borayotgan iqtisodiyoti jozibadorlikni oshirmoqda. Kuzatuvlarimizga ko'ra, ikki tomon o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga chiqib boryapti va bu oddiy savdo aloqalari emas. Endi tomonlarni yirik investitsion loyihalar qiziqiryapti.

Nazarimda, iqtisodiyotning ko'plab sohalarida ikki tomon bir-birini samarali to'ldira oladi. Buning uchun barcha imkoniyatlar yetarli. Xususan, Gongkong dunyoning eng yirik moliyaviy markazlaridan biri bo'lib, kapital bozorlari, aktivlarni boshqarish, bank xizmatlari, "yashil" moliyalashtirish, sug'urta, fintek va professional xizmatlar sohalarida katta tajribaga ega. O'zbekiston esa milliy iqtisodiyotini modernizatsiyalash va xalqaro investitsiyalarni jalb qilishda davom etar ekan, ushbu yo'nalishlarda yirik loyihalar uchun imkoniyatlar oshib bormoqda.

O'zaro savdo hajmlarini oshirish asosiy maqsadlarimizdan biri. Chunki bu bevosita iqtisodiy o'sish, investitsiyalar, yangi ish o'rinlari oshishiga xizmat qiladi. Gongkongning o'ziga xos jihatlardan biri turli bozorlarni bog'lay olish xususiyatidir. Qolaversa, xorijiy bizneslarning Osiyo bozoriga kirishini ham qo'llab-quvvatlaydi. Savdo va kapitalning bunday ikki tomonlama oqimi barcha ishtirokchilar uchun qiymat yaratadi.

O'zbekistonda investitsiya kiritish uchun katta imkoniyat borligi e'tiborimizni tordirdi. Ammo gongkonglik investorlar faqat sarmoya kiritish bilan cheklanmoqchi emas. Biz o'zbek kompaniyalariga yangi bozorlarga chiqish, ko'proq investitsiyalarni jalb qilishga ko'maklashadigan xalqaro tajriba, global biznes tarmoqlari hamda professional xizmatlarni taklif eta olamiz. Xalqaro investorlar bazasi o'zbek korxonalarining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga kirish harakatlari faollashgani ham investorlar qiziqishi va ishonchini yanada oshirmoqda. Yirik tuzilmaga a'zolik xalqaro biznes hamjamiyatiga kuchli ijobiy signal yuboradi. Gap shundaki, bugun global iqtisodiyot ko'p tomonlama hamkorlik, hamma uchun teng bo'lgan qoidalar bilan ishlaydigan ochiq va shaffof savdo tizimi, mavhum bo'lmagan biznes muhiti, adolati bozor tamoyillariga asoslanmoqda. O'zbekistonning ana shu jarayonga qo'shilishi esa uning jahon iqtisodiyotiga moslashuvini yanada mustahkamlab, xalqaro maydonda yangi imkoniyatlarni ochadi.

— **Gongkong delegatsiyasining O'zbekistonga tashrif ancha samarali o'tgani aytilmoqda. Hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha qo'shma "yo'l xaritasi"ni qabul qilish, ikki davlat o'rtasida ishbilarmolar kengashini tashkil etish hamda Gongkong bilan ikki tomonlama vizasiz tartibni joriy etish kabi qator muhim kelishuvlar imzolandi, shunday emasmi?**

— Haqiqatan, "Bir makon — bir yo'l" loyihasi doirasidagi tashrif natijalari kutilganidan ham yuqori bo'ldi. O'zbekiston tomoni bilan turli yo'nalishlarda jami 23 ta hamkorlik memorandumlari imzolandi. Har biri alohida ahamiyatga ega. Chunki ko'zda tutilgan loyihalar o'zaro hamkorlikni muhokama darajasidan amaliy jiro bosqichiga olib chiqadi. Ular orasida Gongkong Savdoni rivojlantirish kengashi bilan O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, "IT Park Uzbekistan", shuningdek, moliyaviy institutlar, texnologik kompaniyalar, yuridik tashkilotlar va investorlar ishtirokida kelishuvlar ham bor.

Xususan, O'zbekiston va Gongkong o'rtasida biznes kengash tashkil etish bo'yicha imzolangan anglashuv memorandumlari maqsadlarimiz yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi. Mazkur hujjat ikki mamlakat ishbilarmolar doiralarida o'rtasida hamkorlikni yanada rivojlantirish, savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash hamda investitsiyaviy sheriklikni kengaytirishga qaratilgan. Bu loyihalar bo'yicha muzokaralar joriy yil mart oyidayoq boshlangan edi. O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi delegatsiyasining may oyida Gongkongga tashrif mazkur hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi.

Endi esa O'zbekiston — Gongkong ishbilarmolar kengashi tashkil etiladi. Kengash ikki mamlakat tadbirkorlari o'rtasida muntazam muloqotni yo'lga qo'yish, yangi biznes aloqalarini shakllantirish, qo'shma loyihalarni ilgari surish hamda savdo va investitsiya sohalaridagi hamkorlikni yanada kengaytirish uchun muhim platforma bo'lib xizmat qilishi ko'zda tutilgan. Shu orqali ikki tomon ishbilarmolarining doimiy aloqalari o'rnatilib, hamkorlikning yangi yo'nalishlari ishga tushiriladi. Bu O'zbekiston va Gongkong o'rtasida yangi va faol biznes muhiti shakllanyapti degani.

Kelgusida birgalikdagi biznes forumlar, B2B uchrashuvlar, tajriba almashish tadbirlari va savdo missiyalarini muntazam tashkil etish rejalashtirilgan. Bu mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdo hajmini oshirish va investitsiyaviy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman, o'zaro aloqalarni markazdan markazga (hub-to-hub) hamkorlik modeli asosida kengaytirib borish nazarda tutilgan. Imzolangan kelishuvlarning ahamiyati esa nafaqat ularning sonida, balki qamrovning kengligida ko'rindadi. Bu kelishuvlar, yuqoridagi aytganimdek, amaliy hamkorlikning boshlanishi, xolos. Biz navbatdagi ishlarni faol davom ettirib, imzolangan memorandumlarni aniq loyihalar, investitsiyalar va uzoq muddatli biznes hamkorlikka aylantirishni maqsad qilmiz.

— **"Yangi O'zbekiston" muxbiri Iroda TOSHMATOVA suhbatlashdi.**



### Islohotlar amalda

# TARAQQIYOT VA NATIJDORLIK OMILI

**Mamlakatimizda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, qonunchilik hujjatlari va davlat rahbari topshiriqlarining so'zsiz hamda samarali ijrosini ta'minlash masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, Prezidentimizning 2025-yil 25-iyuldagi "Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ijro intizomini tashkil etishning zamonaviy va samarali mexanizmlarini qo'llashda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur farmon bilan qonunlar, Prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari hamda topshiriqlari ijrosini nazorat qilishning ta'sirchan tizimini yaratish, hududlardagi islohotlar natijadorligini baholash, davlat organlari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish hamda ijro jarayonlariga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish kabi ustuvor vazifalar belgilandi.**



**Shodmon RASULOV,**  
**"O'zbekgidroenergo" AJ**  
**nazorat bo'limi**  
**bosh mutaxassisi**

Shundan kelib chiqqan holda, "O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyatida ijro intizomini mustahkamlash, davlatimiz rahbari va hukumat tomonidan belgilangan vazifalarning o'z vaqtida, sifatli hamda to'liq bajarilishini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar qilinmoqda. Jamiyat faoliyatida Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobdarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralariga yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori talablari asosida ijro intizomini tashkil etishning samarali mexanizmi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu jarayon doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda.



Bugungi kunda jamiyatda ijro intizomini ta'minlash raqamli boshqaruvi tizimlari orqali amalga oshirilmoqda. Xususan, "ijro.gov.uz", "km.ijro.uz" va "edo.ijro.uz" elektron platformalari orqali hujjatlar ijrosi ustidan doimiy monitoring olib borilmoqda. Jamiyatda ijro intizomini ta'minlash bevosita mas'ul rahbarlarning doimiy nazoratida bo'lib, har bir topshiriqning ijro holati kunlik, haftalik va oylik kesimlarda tahlil qilinadi. Bu jarayonda tarkibiy tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirilib, belgilangan vazifalarning o'z vaqtida bajarilishi ta'minlanmoqda. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining farmoni, qaror va topshiriqlari ijrosini ta'minlashda tizimli yondashuv shakllantirilgan. Jamiyat ijro apparatining tarkibiy departament, boshqarma va bo'linmalari hamda tizim korxonalarini ishtirokida Prezident va Prezident Administratsiyasi hujjatlari, Oliy Majlis palatalari qarorlari, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari va yig'ilish bayonlarida belgilangan vazifalarning ijrosi muntazam nazorat qilib borilmoqda.

Tahsilarga ko'ra, 2017-2026-yillar davomida "O'zbekgidroenergo" AJga ijro uchun jami 175 ta hujjat kelib tushgan bo'lib, ularda jamiyat mas'uliyatiga amalga oshirilishi lozim bo'lgan 947 ta topshiriq belgilangan. Ularning 621 tasi qaror, 124 tasi farmon, 14 tasi farmoyish hamda 188 tasi yig'ilish bayonlarida nazarda tutilgan vazifalardan iborat.

2026-yil 1-iyun holatida mazkur topshiriqlarning 689 tasi to'liq bajarilib, ijrosi ta'minlangan. Bajirilgan vazifalar tarkibida 421 ta qaror, 88 ta farmon, 12 ta farmoyish va 168 ta yig'ilish bayoni topshiriqlari mavjud. Bu esa AJ tomonidan davlat rahbari hujjatlarida belgilangan vazifalarning qariyb 73 foizi to'liq ijro etilganini ko'rsatadi.

Ayni vaqtda 254 ta topshiriq belgilangan muddatlar doirasida bajarilish jarayonida bo'lib, ularning har biri bo'yicha aniq chora-tadbirlar jirasi ishlab chiqilgan. Muhimi, mazkur topshiriqlarning barchasi belgilangan grafiklar asosida bajarilmoqda.

Joriy yil yanvar-may oylarida davlatimiz rahbari topshiriqlari ijrosini o'z vaqtida ta'minlash maqsadida "O'zbekgidroenergo" AJ tomonidan beshta alohida "yo'l xaritasi" va kunbay kesimdagi beshta "kalendard grafik" ishlab chiqildi. Mazkur hujjatlar Vazirlar Mahkamasi va Energetika vazirligi bilan kelishilgan holda tayyorlanib, ularda nazarda tutilgan barcha vazifalar ijrosi to'liq ta'minlandi. Natijada

"ijro.gov.uz" hamda "km.ijro.uz" tizimlarida jamiyat mas'uliyatiga bo'lgan birorta ham bajarilmagan topshiriq mavjud emas. Bu ko'rsatkich "O'zbekgidroenergo" AJda ijro intizomini tashkil etish va nazorat qilish ishlari yuqori darajada yo'lga qo'yilganini, mas'ul xodimlar va rahbarlar tomonidan topshiriqlar ijrosiga alohida e'tibor qaratilayotganini yaqqol namoyon etadi.

2026-yilning besh oyida "ijro.gov.uz" tizimi orqali jamiyat ijrosiga jami 131 ta topshiriq kelib tushdi. Shundan 92 tasi Prezident, 19 tasi Prezident Administratsiyasi, 20 tasi Vazirlar Mahkamasi hujjatlari hamda 58 tasi hukumat komissiyalari bayonlarida belgilangan vazifalardan iborat bo'ldi. Ularning har biri bo'yicha mas'ul ijrochilar belgilanib, bajarilishi ta'minlandi va belgilangan tartibda nazoratdan chiqarildi.

Jamiyatda hujjatlar aylanmasi va boshqaruvi jarayonlarini raqamlashtirish borasida ham keng ko'lami

ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "edo.ijro.uz" elektron platformasi orqali 2026-yil yanvar-may oylarida jami 9532 ta hujjat aylanmasi qayd etildi. Shundan 5226 tasi kelib tushgan, 4306 tasi esa ishlab chiqilgan hujjatlar tashkili etdi. Kelib tushgan hujjatlar tarkibida Prezident Administratsiyasidan 33 ta, Vazirlar Mahkamasiidan 98 ta, vazirlik va idoralardan 840 ta, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlardan 253 ta, tizim korxonalaridan 2649 ta, boshqa tashkilotlar va xorijiy hamkorlardan 849 ta, jismoniy va yuridik shaxslardan 81 ta murojaat qabul qilindi. Shuningdek, davlat sirlarini muhofaza qilish talablari muvofiq maxsus tartibda ko'rib chiqiladigan hujjatlar bilan ishlash ham qat'iy nazorat asosida tashkil etildi.

Ishlab chiqilgan hujjatlar tarkibida kengash qarorlari, ishlab chiqarish va kadrlarga oid buyruqlar, yig'ilish bayonlari, chora-tadbirlar rejalari, chiqish xatlari, faksogrammalar hamda ichki xizmat yozishmalari muhim o'rin egalladi. Bu esa jamiyatda boshqaruvi qarorlarini qabul qilish va ularning ijrosini ta'minlash jarayonlari raqamli muhitga to'liq integratsiya qilinganini ko'rsatadi.

Bugungi kunda jamiyatning ichki boshqaruvi tizimida qabul qilinayotgan barcha hujjatlar ijrosi ham elektron platforma orqali monitoring qilib borilmoqda. Jumladan, 29 ta yig'ilish bayoni bo'yicha belgilangan 1844 ta topshiriqning ijrosi har kuni tahlil qilinib, mas'ul ijrochilar faoliyati muvofiqlashtirilmoqda. Apparat yig'ilishlari, texnik yig'ilishlar, buyruqlar, boshqaruvi qarorlari hamda maxsus topshiriqlar bilan belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tizimli monitoring yo'lga qo'yilgan bo'lib, har bir topshiriqning bajarilish holati muntazam tahlil qilinmoqda. Bunda ijro muddatlariga qat'iy rioya etish, vazifalarning sifatli va natijador bajarilishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz tomonidan belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda "O'zbekgidroenergo" AJ kelgusida ham ijro intizomini yanada kuchaytirish, raqamli nazorat vositalarini kengaytirish, mas'ul xodimlar malakasini oshirish va davlat rahbari topshiriqlarining so'zsiz ijrosini ta'minlashga qaratilgan ishlarni izchil davom ettiradi. Zero, ijro intizomi har qanday islohotning amaliy natijasini ta'minlaydigan, davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilaydigan eng muhim omillardan biridir.

Kiberxavfsizlik madaniyati texnologiyalar tez rivojlanishi sharoitida alohida ahamiyat kasb etayotir. Ilgari kiberxavfsizlikka ko'proq texnik masala sifatida qaralgan bo'lsa, hozir u insonning bilimi, odatlari va xulq-atvori bilan bog'liq keng tushuncha sifatida o'rganilmoqda.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz\_official yuz.uz\_news yuz.uz\_news

Dolzab mavzu

Kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish bugungi axborotlashgan jamiyatda juda muhim masalalardan biri. To'g'ri, zamonaviy texnologiyalar, internet va raqamli xizmatlar hayotimizni ancha yengillashtirdi. Bugun deyarli barcha soha, hatto, shaxsiy hayotimiz ham raqamli muhit bilan bog'lanib qolgan. Biroq bu qulayliklar bilan birga yangi xavf-xatarlar ham paydo bo'lmoqda. Shu sababli axborotni himoya qilish va kiberhujumlarning oldini olish dolzarb vazifaga aylandi.



Bilim va malaka ezgulikka xizmat qilishi kerak

bolalarning xavfsizligi ko'p jihatdan kattalar nazoratiga bog'liq.

Jamiyatda raqamli savodxonlikni oshirish muhim. Odamlarga internetdagi firibgarliklarni tanish, ishonchli manbalarni ajratish va o'zini himoya qilishni o'rgatish kerak. Bu ishda ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va davlat tashkilotlari faol ishtirok etishi lozim.

Ya'ni kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish hayoti ehtiyojdir. Har bir inson internetdan ongli va mas'uliyatli foydalanishni o'rgansa, xavfsiz va ishonchli raqamli muhitni barpo etish mumkin.

Kiberxavfsizlik madaniyati texnologiyalar tez rivojlanishi sharoitida alohida ahamiyat kasb etayotir. Ilgari kiberxavfsizlikka ko'proq texnik masala sifatida qaralgan bo'lsa, hozir u insonning bilimi, odatlari va xulq-atvori bilan bog'liq keng tushuncha sifatida o'rganilmoqda.

Xalqaro standartlarda ham bu jihatga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, ISO/IEC 27001 standartida tashkilotlarda axborot xavfsizligini ta'minlash uchun xodimlarni o'qitish, xabardorligini oshirish va xavfsizlik qoidalarga amal qilish muhimligi belgilangan. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan tayyorlangan hisobotlarda aholining raqamli savodxonligini oshirish va kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirish muhim vazifa sifatida ko'rsatiladi.

Odamlarga shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, internetda ehtiyotkor bo'lish va shubhali havolalardan saqlanish kabi oddiy, ammo juda foydali maslahatlar beriladi. Bunday maslahatlar asosiy maqsadlari ham bir insonda xavfsizlik odatlarini shakllantirishdir.

Bugungi kunda axborotlashgan jamiyatda kiberxavfsizlik masalasi tobora muhim va bir vaqtning o'zida murakkab bo'lib bormoqda.



Azizbek SOBIROV, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

chiqadi. Masalan, shubhali havolalarga kirish, ishonchsiz dasturlarni yuklab olish yoki shaxsiy ma'lumotlarni himoyasiz holda tarqatish katta xavf tug'diradi.

Shuning uchun kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish juda muhim. Buning uchun esa ongli harakat ko'nikmasi kerak. Bu faqat AT mutaxassislari emas, balki har bir fuqarolar uchun zarur. Chunki global tarmoqdan foydalanuvchi har qanday inson kiberxavfning dush kelishi mumkin. Zero, bugun fishing, viruslar, ma'lumot o'g'irlash va akkauntlarni buzish holatlari keng tarqalgan.

Bu jarayonda ta'lim tizimi alohida ahamiyatga ega. Bolalarga yoshligidan internetdan to'g'ri foydalanish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va xavflarni anglashni o'rgatish zarur. Shu bilan birga, o'qituvchilar va ota-onalar ham bu borada yetarli bilimiga ega bo'lishi kerak. Chunki



Raqamli texnologiyalar tez rivojlanib, internet orqali ma'lumot almashish juda osonlashdi. Ko'plab xizmatlar onlayn shaklga o'tdi. Shu bilan birga, kiberxavflarning turi ko'payib, ta'siri kengayib bormoqda.

Kuzatuvlar ko'rsatadiki, odamlar ko'p hollarda oddiy xatolarga yo'l qo'yadi. Masalan, oson parol qo'yadi, shubhali havolalarga bosadi, bilmasdan zararli dasturlarni yuklab oladi yoki shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilmaydi. Bu esa kiberxavfsizlik madaniyatini yetarli darajada shakllanmaganini anglatadi. Shuning uchun muammoni hal qilish faqat texnikaga bog'liq emas. U insonlar fikri va odatlarini o'zgartirishiga ham daxldordir.

Kiberxavfsizlik madaniyati yaxshi rivojlangan jamiyatlarda odamlar internetdagi har bir ma'lumotga ehtiyotkorlik bilan qaraydi. Ular har qanday xabar yoki havolani tekshirmasdan ishonmaydi. Bu esa firibgarlik va kiberhujumlar ta'sirini kamaytiradi. Masalan, raqamli savodxonlik yuqori davlatlarda fishing — ishonchli tashkilotlar (bank, ijtimoiy tarmoqlar, davlat idoralari yoki onlayn do'konlar nomidan xat yoki xabar yuborib, shaxsiy ma'lumotlarni aldoq yo'li bilan olish) kabi hujumlar kamroq uchraydi.

Agar maktab va oliy ta'limda bolalarga internetdan to'g'ri foydalanish chuqur o'rgatilsa, ular ancha ehtiyotkor bo'ladi. Masalan, shaxsiy

ma'lumotlarni oshkor qilmaslik, notanish manbalardan fayl yuklamaslik va shubhali saytlarga kirmaslik kabi odatlar shakllanadi.

Shu bilan birga, ota-onalarning bu boradagi bilimlari muhim. Agar kattalar internet xavflarini tushunmasa, bolalarni to'liq himoya qilish qiyin bo'ladi. Shuning uchun kiberxavfsizlik madaniyati o'zida ham shakllanishi kerak.

Tashkilotlarda bu masala juda dolzarb. Agar korxonada axborot xavfsizligi qoidalari joriy qilinmasa, ota-onalarning bu boradagi bilimlari muhim. Agar kattalar internet xavflarini tushunmasa, bolalarni to'liq himoya qilish qiyin bo'ladi. Shuning uchun kiberxavfsizlik madaniyati o'zida ham shakllanishi kerak.

Ijtimoiy tarmoqlarda esa ko'pchilik odamlar shaxsiy ma'lumotlarini ochiq joylashtiradi. Masalan, telefon raqami, manzil yoki shaxsiy suratlarni barchaga ko'rinadigan qilib qo'yadi. Bu esa firibgarlar uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Kiberxavfsizlik madaniyatini muayyan bosqichlar orqali shakllanadi. Avvalo, inson bilim oladi — ya'ni internet xavflari haqida tushunchaga ega bo'ladi. Keyin bilimlarni amalda qo'llay boshlaydi. Shu orqali insonda xavfni oldindan sezish qobiliyati paydo bo'ladi. U internetdagi holatni baholab, to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini ajrata oladi. Natijada to'g'ri qaror qabul qiladi va xavfsiz harakat qilish odatini shakllantiradi.

Shu tariqa kiberxavfsizlik insonning kundalik odatiga aylandi. Bu nafaqat shaxsiy xavfsizlikni ta'minlaydi, balki umumiy xavfsiz raqamli muhit yaratishga ham xizmat qiladi.

Jamiyatda kiberxavfsizlik madaniyatini barchada yamini — 45 foizi past darajadagi kiberxavfsizlik madaniyatiga ega. Bu guruh internetda eng ko'p xavfga duch keladi. Chunki ular odatda shubhali havolalarni tekshirmasdan ochadi, oson parollardan foydalanadi va shaxsiy ma'lumotlarni yetarli darajada himoya qilmaydi.

Foydalanuvchilarning 35 foizi o'rta darajada hisoblanadi. Ular kiberxavfsizlik haqida ma'lumot bilimga ega, lekin amalda har doim ham qoidalarga rioya qilmaydi. Shuning uchun bu guruhda qo'shimcha o'quvlar va tushuntirish ishlari olib borish muhim.

Eng kam qism — 20 foiz foydalanuvchilar esa bu borada yuqori darajada bilim va tushunchaga ega. Ular internetdan ehtiyotkor bo'lib foydalanadi, shaxsiy ma'lumotlarini himoya qiladi va xavflarni tezda anglay oladi. Aynan shu guruh xavfsiz raqamli jamiyatni shakllantirishda asosiy tayanch bo'ladi.

Bu natijalar jamiyatda kiberxavfsizlik madaniyatini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, past va o'rta darajadagi foydalanuvchilar bilan maqsadli ishlansa, umumiy xavfsizlikni sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

Kiberxavfsizlik madaniyatini — barchaga tegishli masala. Agar har bir inson o'z xavfsizligi uchun mas'uliyatni his qilsa, jamiyatda xavfsiz va ishonchli raqamli muhitni yaratish mumkin bo'ladi.

XOHISH VA MAQSAD BO'LSA, MABLAG' HAM, IMKONIYAT HAM TOPILADI

YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA KOSON TAJRIBASI OMMALASHADI

Maydayobu mahallasi Koson tumanining olis hududlaridan. Mahalla ahli bir paytlar cho'lni o'zlashtirish maqsadida ko'chib kelgan. Keksalarning aytishicha, bir muddat cho'lda ish qizg'in kechgan. Hudud yashashga qulay bo'lgan. Ammo keyinchalik e'tibor susaygan. Beton ariqlardagi suv qurib, dalalarni yantoq bosgan. Shunda imkoni bor kishilar chorvachilik bilan shug'ullangan. Ayrimlar ko'ch-ko'ronini olib, boshqa joyga ketgan.

Tadbirkorlik



Vaqt o'tishi bilan aholi nufusi oshib borar, bu esa turmush tarzini murakkablashtirar edi. Tirikchilik toshdan qattiqlashdi. Dehqonchilik qilishga suv yo'q. Chorva uchun ozuqa yetishmaydi. Ishlash uchun na biror korxonaga yoki zavod bor. Muammolar ortidan muammolar ergashib kelaveradi. Shu tariqa ko'pgina yoshlar ish axtarib xorijga ketgan edi...



Oradan o'n kun o'tib u safarga o'tlandi. Ilhom boshida qurilishda oddiy yordamchi bo'lib ishladi. Vaqt o'tib ustachilik qildi. Lekin tinim yo'q edi. Issiqni issiq, sovuqni sovuq demay harakat qildi. Shunday bo'lsa-da, topgani o'zidan ortmadi. Shu holda ikki-uch yil umri o'tdi. Shuncha mehnatni qishloqda qilsa qancha daromad topishi mumkinligini o'ylar, lekin vaqtini ortga qaytarib bo'lmadi.

Maktabni tugatganida bir o'lam orzumi amalga oshira olmay ancha yil ishsiz yurdim, — deydi Ilhom Eshqobilov. — Keyin majburligimdan xorijga ketdim. Bir kuni qishloqqa qaytganida o'rtoqlarim yoshlarga yer ajratilayotgani haqida aytdi. Bu vaqtda yurtimizda yangilanishlar davri boshlangan edi. Shunday bo'lsa ham avvaliga yer olishga ikkilandim. Nima maqsadda foydalansa bo'ladi degan savol qiyindir. Tavakkal qilib ariza yozib, bir gektar yer oldim. Biz tomondan ekin uchun oqar suv yo'q. Chorva uchun ozuqa yetishtirish mumkin, deyishdi. Chet elda qiyinlab yurgandim ko'ra qishloqda mehnat qilganim bo'lsin, deya ishga kirishdim. Bada ekdim. Imtiyozli kredit olib quduq qazirdim. Elektr energiyasi yo'q edi. Quyosh paneli o'rnatib, nasos orqali suv chiqardim. O'n beshta qo'y sotib oldim. Uch oyda bir barobar yuqori narxda sotdim. Keyin yetmishta qo'y sotib oldim. Olti oyda ikki karra ko'p mablag' ishladim. Hisoblab ko'rsam, daromad yomon emas. Mehnat qilgan sari tajribam ham oshib bordi.

Prezidentimizning 2024-yil 5-apreldagi "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra yer olgan Ilhom Eshqobilov adashmagan edi. Intilishi natijasida yerdan unumli foydalanishning uddasidan chiqdi. Bugun u chorvachilik ortidan yaxshi daromad olmoqda. Bir yilda o'rtacha bir milliard so'mdan ziyod mablag' ishlab topmoqda. Hozir yangi loyihalarni ustida ishlamoqda. Muhimi, Maydayobu mahallasida Ilhom Eshqobilov kabi o'zini o'zi band qilgan yoshlar safi tobora kengayib bormoqda.

Masalan, Abdulaziz Jo'rayev avval uzoq yillar xorijda ishlab yurgan. Keyinchalik mahalladagi yoshlar yetakchisining taklifiga ko'ra bir gektar yer olgan. U chorva uchun ozuqa yetishtirib, avvaliga 25 ta qo'chqor sotib oldi. Ishning unumini bilgani, intilishlari sabab Abdulaziz ikki yilda sohadagi yetakchilar qatoridan yo'q oldi. Shu yo'sinda 200 boshga yaqin qo'y boqish imkoniga ega bo'ldi. — Kishi maqsad sari intilsa, albatta, unga erishar ekan, — deydi Abdulaziz Jo'rayev. — Yoshim 26 da. Bir kun kelib, yuqori daromadli ish yarataman, deya orzu qilib yurardim. Hozir bunga erishdim. Endi yangi loyiha ustida ishlayapman. Yaqinda quyosh paneli o'rnatdik. Ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining bir qismini davlatga sotaymiz. Bu ham qo'shimcha daromad bo'lyapti. Keyinchalik chorvachilik tarmog'ini ham kengaytirishni reja qilganmiz. Bundan tashqari, mahallamizdagi bekorchi yoshlar bandligini ta'minlash uchun ish o'rgatishni maqsad qilganmiz.

Koson tumani hokimligi ma'lumotiga ko'ra, bugun birgina Maydayobu mahallasining o'zidan 56 yosh bir gektardan yerga egalik qilib chorvachilikni rivojlantirmoqda. Obod mahallasi ham yaqin oylarda kambag'allikdan xoli hududga aylanadi. Sababi shu yil may oyining o'zida bu hududda katta ishlarga qo'l urildi. Xususan, mahalladagi ikki tadbirkor ko'magida yoshlar bandligini ta'minlash uchun harakat boshladi. "Mahalla yetingili" tavsiyasi bilan 16 yoshga imtiyozli kredit ajratilib, bo'sh turgan yerlarga hovuz qazildi. Tadbirkorlar ko'magida baliq chavog'i imtiyozli narxda keltirib berildi.

Shu paytgacha ishsiz edi. Yaqinda mahallamizdagi hokim yordamchisi baliqchilik yo'nalishi bo'yicha ishlashim mumkinligini aytdi. Ish boshlashga yetadigan kredit ajratilishi uchun tavsiya ham berildi. Shundan so'ng harakati boshlab yubordim, — deydi Shohrux Mirzayorov. — Hovlimizning tashqi tomonida tashlandiq yer bor edi. O'sha yerda hovuz qazdik. Baliq chavog'ini olib keldik. Hisobimiz bo'yicha to'rt-besh oyda baliq tayyor bo'ladi. Shundan so'ng bozorga chiqarimiz. Qulayligi — uyimiz oldida. Nazorat qilishda muammo bo'lmaydi.

Bugun yoshlar bandligini ta'minlashda Koson tumanida namunali ishlar bajarilmoqda. Hozir tumanning bu boradagi tajribasi viloyat miqyosida ommalashtirilyapti.

Akbar RAHMONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Yuksalish pallas

Bolaligimdan sportga mehr qo'rganman. Erkin kurash bilan shug'ullanaman. Bu sport turi menga o'zining shiddati, qat'iyat talab qilishi va inson xarakterini chiniqtirishi bilan yoqib qolgan. Vaqt o'tishi bilan ana shu qiziqish maqsadga, maqsad esa hayot yo'limga aylandi.

BAYROG'IMIZ BALAND KO'TARILGAN LAHZALAR HAR QANDAY MUKOFOTDAN QADRLIROQ

Bugun sport sohasiga e'tibor, zamonaviy sport inshootlari, malakali murabbiylar faoliyati, yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli ishlar ko'plab yigit-qizlarning katta sportga kirib kelishiga xizmat qilmoqda. Men ham ana shu imkoniyatlardan samarali foydalangan yoshlar qatoridaman. Ayniqsa, Qoraqalpog'istonda sportni rivojlantirish, yoshlarni sog'lom turmush tarziga jalb etish, qizlarning sport bilan shug'ullanishiga ko'maklashish yo'lidagi ishlar yangi avlod sportchilar kamol topishiga mustahkam zamin yaratmoqda. Xalqaro maydonlarda yurtimiz sharafini himoya qilayotgan ko'plab sportchilar qatori men ham yaratilgan sharoit va berilgan ishonchning samarasini o'z faoliyatim misolida chuqur his qilaman.

2013-yilda erkin kurash bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi safiga qabul qilindim. Bu men uchun katta ishonch va ayni paytda katta mas'uliyat edi. Endi men nafaqat o'zim, balki butun mamlakatimiz nomidan gilamga chiqardim. Shu davrdan boshlab xalqaro musobaqalar sari yo'l ochildi. Oldinda esa o'z kuchimni jahon miqyosidagi nufuzli bahslarda sinovdan o'tkazish, O'zbekiston bayrog'ini xalqaro arenalarda munosib himoya qilishdek mas'uliyatli vazifalar kutib turardi. Ana shu musobaqalar sportchilik faoliyatimning keyingi, yanada muhim bosqichi bo'ldi.

Xalqaro maydondagi dastlabki yutuqlarim 2014-yilga to'g'ri keladi. O'sha yili Tailandning Chonburi shahrida erkin kurash bo'yicha o'tkazilgan Osiyo chempionatida 3-o'rinni egalladim. Shuningdek, 2015-yilda Hindistonning Nyu-Dehli shahrida o'tkazilgan Osiyo chempionatida ham faxrli o'rinda sazonov bo'ldim. Eng muhimi, bu yutuqlar yanada katta maqsadlar sari intilishim uchun kuch va rag'bat berdi.

Keyingi yillarda murabbiylarning saboqlari va mashg'ulotlarda o'rtirgan tajribam natijalarda aks eta boshladi. 2016-yilda Qozog'istonning Chimkent shahrida o'tkazilgan xalqaro musobaqada 1-o'rinni egallash nasib etdi. Mazkur g'alaba faoliyatimdagi muhim bosqichlardan biri bo'ldi. O'sha yil Filippinning Manila shahrida o'tgan Osiyo chempionatida, Tayvaning Taychung shahridagi Osiyo chempionatida ham 3-o'rinni qo'lga kiritdim.

Bundan tashqari, faoliyatimning muhim yutuqlaridan biri sifatida 2011-2018-yillar davomida erkin kurash bo'yicha o'n karra O'zbekiston chempioni bo'lganimni alohida qayd etishim mumkin.

Yillar davomida xalqaro maydonlarda o'rtirgan tajribam meni yanada yirik musobaqalar sari yetakladi. Faoliyatimdagi eng esda qolarli musobaqalardan biri 2023-yilda Xitoyning Guanchjou shahrida o'tkazilgan 19-Osiyo o'yinlari bo'ldi. Ushbu nufuzli musobaqada 3-o'rinni egallashim men uchun unutilmas voqea edi. Oldinda esa har bir sportchi orzu qiladigan eng yirik musobaqa — Olimpiya o'yinlari turardi. Bu yo'lning qanchaligi murakkabligini yaxshi bilardim. Olimpiadaga yo'llanma qo'lga kiritish uchun nafaqat mahorat, balki mustahkam iroda, ruhliy barqarorlik va o'z kuchiga bo'lgan ishonch ham zarur edi.

2024-yilda Qirg'izistonning Bishkek shahrida Olimpiada o'yinlariga yo'llanma beruvchi musobaqa bo'lib o'tdi. Ana shu bellashuvlarda O'zbekiston tarixida ayollar kurashi bo'yicha ilk Olimpiya yo'llanmasini qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldim. Shu tariqa Parijda bo'lib o'tgan Olimpiya



o'yinlari ishtirokchisiga aylandim. Har bir sportchi uchun Olimpiya maydoniga chiqish ulkan sharaf hisoblanadi. Men ham ushbu imkoniyatni vatanim nomidan xalqaro sport tarixining eng nufuzli sahnasida qatnashish baxti sifatida qabul qildim. Oldinda esa yangi maqsadlar, sinovlar bisyor. Shu sababli bugungi yutuqlar bilan chegaralanib qolmay, o'z ustimda ishlashni davom ettirib, yurtimiz shon-shuhratini dunyoga tanitish yo'lida bor kuch va imkoniyatlarimni safarbar etishga intilaman.

Men uchun sport o'zim tug'ilib o'sgan yurtga bo'lgan hurmatni amalda namoyon etish imkoniyatidir. Qoraqalpog'istonning olis hududlarida sportga qiziqib, katta orzular bilan yashayotgan qizlar borligini bilaman. Balki ulardan kimdir bugun birinchi mashg'ulotga qatnayotgandir, kimdir ilk musobaqasiga tayyorgarlik ko'rayotgandir. Yillar o'tib, ular orasidan yangi chempionlar yetishib chiqishiga ishonchim komil. Zero, buning uchun bugun har qachongidan ham ko'proq imkoniyatlar muhayyo. Men esa ularga ilhom va ishonch berib, haqiqiy namunaga bo'lishim kerak va shu yo'lida tinimsiz harakatdaman.

Ayrganimdek, hali maqsadlarim bisyor. Maqsad bilan yashaydigan inson esa yangi ufqlar tomon harakat qilishda davom etaveradi. Men ham ana shu harakatdan kuch olib, O'zbekiston bayrog'ini dunyo arenalarida hamisha sarbaland etish, ona xalqimizning biz, yoshlarga ishonchini oqlash yo'lida intilishim to'xtamayman. Chunki yurt nomi yangragan onlarda sportchining shaxsiy quvonchi ortingizda turgan buyuk bir xalqning faxr tuyg'usi bilan qorishib ketadi. Ana shunday lahzalar esa har qanday mukofotdan qadrliroqdir.

Aqtenge KEUNIMJAYEVA, erkin kurash bo'yicha xalqaro sport ustasi, erkin kurash bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosi



"Temur tuzuklari" – milliy davlatchiligimiz dasturi



BEBAHO VA ESKIRMAS DASTURULAMAL

Mamlakatimizda Sohibqiron Amir Temur bobomizning o'lmas xotirasini abadiylashtirish, hayoti, keng qamrovli faoliyati va boy ma'naviy merosini chuqur o'rganish borasida ulkan ishlar bajarilmoqda.

Amir Temur — tarix sahifalarida o'chmas iz qoldirgan buyuk siymo. U yengilmas sarkarda va yirik davlat arbobi bo'lish barobarida teran fikrli qonunshunos, ulkan bunyodkor, so'z qadri bilan notiq hamda el-yurtini cheksiz sevib, dog'ini butun jahonga tarannum etgan ulug' bobomizdir.

Sohibqironning olamshumul zafarlari va barpo etgan qudratli saltanati qalbimizga yuksak iftixor tuyg'usini bag'ishladi, kelajak avlodlarga qoldirgan purhikmat o'g'itlari, xususan, "Temur tuzuklari" asari asrlar osha o'z qadri qimmatini yo'qotmaydigan, bebaho va eskirmas dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Bir muddat ilgari o'quvchilarimizni ushbu nodir meros bilan yanada yaqindan tanishtirish maqsadida "Yangi O'zbekiston" gazetasida "Temur tuzuklari" —



milliy davlatchiligimiz dasturi" nomli rukn tashkil qilgan edik. Endi mazkur loyiha davomi sifatida yirik sharhshunos olim Bo'riboy Ahmedovning (1924-2002) "Amir Temur o'g'itlari" nomli kitobiga murojaat qilishni lozim topdik. Kelgusi sonlarimizda Sohibqiron bobomizning davlat boshqaruvi, bunyodkorlik va obodonchilik g'oyalari, ilm-fan taraqqiyoti hamda yurt xavfsizligini ta'minlash masalalariga doir teran qarashlarini alohida yo'nalishlar kesimida taqdim etib boramiz. Quyida ushbu kitobdan o'rin olgan, bevosita davlatni adolat bilan boshqarish tamoyillariga bag'ishlangan nodir parchalar e'tiboringizga havola etilmoqda.

Tahririyat

Amir Temurning davlat boshqaruvi haqidagi qarashlari

Saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilgin, ya'ni: 1) kengash; 2) mashvaratu maslahat; 3) qat'iy qaror, tadbirkorlik, hushyorlik; 4) ehtiyotkorlik. Chunki kengash va mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari noto'g'ri bo'lgan johil odamga qiyos qilish mumkin; uning aytgan so'zlari va qilgan ishlari boshga pushaymonlik va nadomat keltirgay. Shunday ekan, saltanatni boshqarishda mashvaratu maslahat va tadbirkorlik bilan ish yuritgin, toki oqibatda nadomat chekib, pushaymon bo'lmagaysan. Shuni ham bilishing kerak, saltanat ishlarining bir qismi sabru toqat bilan bo'lgay, yana bir qismi esa bilib bilmaslikka, ko'rib ko'rmaslikka solish bilan bitur. Xullas, bajarilishi shart bo'lgan tadbirlarning ta'rifidan va zikridan so'ng (shuni ta'kidlash lozimki) qat'iylik, sabr, chidamlilik, sog'lig'u sergaklik, ehtiyotkorlik va shijoat bilan barcha ishlar amalga oshirilur.

Davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilur.

Adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o'zimdand rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko'nglidan joy oldim.

Hech kimga g'azab bilan qattiq muomala qilmadim va hech bir ishda tanglik qilmadim, toki Tangri taoloning g'azabiga duchor bo'lmayin va ishimni buzib, holimni tang aylamasin deb.

Hozirgi damgacha o'tgan sultonlarning qonunlari va turish-turmushlarini donolardan so'rab-surishtirdim. Har qaysilarining yo'l-yo'riqlari, turish-turmushlari, qilish

qilmishlari, aytgan gaplarini xotiramda saqladim va xush axloqlari, ma'qul sifatlaridan namuna olib, unga amal qildim. Davlatlarining tanazzulga uchrashi sabablarini surishtirdim va davlatu saltanat zavoliga sabab bo'luvchi ishlardan saqladim. Naslini buzuvchi, ocharchilik va vabo kasali keltiruvchi zulm va buzuqchilikdan saqlanishni o'zimga lozim bildim.

Raiyat ahvolidan ogoh bo'ldim, ulug'larini og'a qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rdim.

Hokimlar, sipoh va raiyatdan qaysi birining xalqqa jabr-zulm yetkazganini ehsitmas, ularga nisbatan darhol adolatu insof yuzasidan chora ko'rdim.

Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o'zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo'lishga intildim.

Qaysi hokim hukmining ta'siri cho'p bilan kaltaklash ta'siridan kamroq bo'lsa, unday hokim hukumat yurguzishga yarozsizdir.

Yumshoqlik qilishga to'g'ri kelsa, muloyimlik qildim; qattiqqo'llik ishlatish vaqti yetsa, qat'iy choralar ko'rdim. Shoshmaslik kerak yerda shoshilmadim, shoshilarlari ishlarni kechiktirmadim. Qaysi ishni chorayu tadbir bilan bitirishning iloji bo'lsa, unda qilich ishlatmadim.

Kuch — adolatdadir.

Davlat — lashkarlarlu fuqarolarning sadoqati va fidoyiligi-lu qudratlidir.

Bir kunlik adolat — yuz kunlik toat-ibodatdan afzal.



JADID BOBOLARNING RUHIN SHOD ETIB...

Davlatimiz rahbarining joriy yil 1-iyun kuni madaniyat va san'at sohasi vakillari bilan uchrashuvi, marosimda sohaning bir guruh fidoyilariga davlat mukofotlari topshirishi hamda ertasi kuni "Madaniyat, san'at va adabiyot sohalari yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon qabul qilinishi beixtiyor ulug' ma'rifatparvar bobomiz Abdulhamid Cho'p'ning bundan bir asr oldin yozgan "Adabiyot nedir?" degan maqolasi yodimga soldi.



Zikrilla NE'MAT, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, "Do'stlik" ordeni sohibi

Cho'p'on mazkur maqolasida bunday degan edi: "Adabiyot yashasa — millat yashar. Adabiyoti o'lg'on va adabiyotning taraqqiyotiga chalishmagan va adiblar yetishdirmagan on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydand, fikrdan mahrum qolib, sekin-sekin inqiroz bo'lur. Muni inkor qilib bo'lmas. Inkori qilg'on millat o'zini inqirozda ekanun bildirur".

Bugun mamlakatimizda adabiyot va san'at ahliga qaralayotgan yuksak e'tibor, ko'rsatilyotgan g'amxo'rliklarni ko'rib, jadid bobolarimizning asriy orzu-armonlari ushlayotgandek tuyuldi menga. Xalq va millat taqdiri adabiyot va san'at bilan chambarchas bog'liq ekanini his etgan Shavkat Mirziyoyev Prezidentlikka saylangach, mamlakatimiz ziyolilari bilan uchrashib, O'zbekistonimiz nurli istiqbolga erishishi yo'lida qilinishi lozim bo'lgan masalalarni muhokama qilgan edi.

Bu mavzuga takror-takror murojaat qilindi. Jumladan, 2023-yil 22-dekabrda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ham Prezidentimiz "Tarixdand ma'lumki, Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari — uyg'oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G'arb ilmi-fan yutuqlari bilan birga milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur", deya ta'kidlagan edi.

Haqiqatan, XX asr boshlarida milliy ziyolilarimizning o'z hayotini xavf ostiga qo'yib qilgan madaniy-ma'rifiy ishlari tahsinga sazovordir. Xususan, bu davrda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulhamid Cho'p'on, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabi ma'rifatparvar jadidlarimiz matbuot, madaniyat va maorif ishlariga katta ahmiyat qaratdilar.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti adabiyotshunosligimiz tarixida "ma'rifatparvarlik adabiyoti" sifatida talqin etiladi. Turkiston tuprog'ining Rusiya futbolari tomonidan toptalgan ulug' jadid ma'rifatparvar shoirimiz Abdulla Avloniy ming bir alam va taassuf bilan: "Balo tog'iy yog'ildi boshimizga xobi g'afatdin, Mijoz sust o'lib, millat tushdi quvvatdin... Keyin qoldik, chekuldik ag'oyur millatdin, Surildik dahr aro bizlar qatori odamiyatdin!" deya yozgan va bir umr bu zulmatdan qutulish orzusi bilan yashab o'tgan edi.

Afsuski, jadid ma'rifatparvarlarimiz bu yorug' kunlarga yetolmay, yovuz g'animlar tomonidan shafqatsizlaracha mavh etildi. Shu bois, ularning hayoti va faoliyatini hamda istiqloq yo'lidagi

mardonavor kurashini yosh avlodga o'rgatish biz uchun ham farz, ham qarzdur.

Shu maqsadda Prezidentimiz tomonidan maxsus qaror qabul qilindi. Shuningdek, mamlakatimizda "Jadid" nomli yangi gazeta tashkil etildi. Buxorodagi tarixiy maskanda Jadidlar merosi davlat muzeyi ochildi.

So'nggi yillarda yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy sohalarda katta ishlar qilindi. Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasi hamda Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tashkil etildi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tizimidagi xodimlar soni ikki karra oshirildi, ularni moddiy rag'batlantirish choralari ko'rildi.

"Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi soha rivojida muhim ahmiyatga ega bo'ldi. Milliy an'analarimizni asrab-avaylash va boyitish maqsadida maqom, baxshchilik va askiya san'ati markazlari tashkil etildi. Shuningdek, "Bahor" raqs ansambli, Davlat filarmoniyasi, Davlat simfonik orkestri kabi 20 dan ortiq madaniy muassasa faoliyati yo'lga qo'yildi. 11 ta yangi muzey, 2 ta teatr, 28 ta bolalar musiqa va san'at maktabi, 5 ta oliy ta'lim muassasasi tashkil etildi.

Poytaxtimizda Adiblar xiyoboni, Yozuvchilar uyushmasining buyuk mashqam binosi, hududlarda yangi ijod uylari qurildi. Prezidentimiz Adiblar xiyoboniga tashrif chog'ida "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni egzu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz", degan edi. Xiyobonni sayr etib, mening-da ko'nglimdand bunday tuyg'ular kechdi: "Poytaxtimiz bag'rida buyuklar kashkashoni, Bunda xalqim yuragi, ruhi hamda iymoni. Adiblar xiyoboni, Adiblar xiyoboni — Qalbi ishqiy ijodga habiblar xiyoboni. Ezgulik mayog'iday chorlab turar to abad, Yuraklarga ulashib mangu o'chmas ziyoni. Darhaqiqat, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, samarali ijod qilayotgan adiblar imtiyozli asosda uy-joylar bilan ta'minlanadigan, atqoli ijodkorlarimizning tavallud sanalari keng nishonlanadigan bo'ldi. Yosh iste'dodlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida Zomin seminarlari qayta tiklandi. Ilk bor nashr etilgan 100 jildli "Turkiy adabiyot durdonalari", 30 jilddand iborat "Mustaqillik davri navoiyshunosligi", "Qoraqalpoq adabiyoti durdonalari", "Mard askarga sovg'a" singari adabiy majmualar ma'naviy hayotimizda muhim voqea bo'ldi.

San'at va madaniyat ahliga yuksak ehtirom ramzi sifatida qabul qilingan "Madaniyat, san'at va adabiyot sohalari yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar

to'g'risida"gi farmonda ijod ahliga berilgan ko'plab imtiyoz va imkoniyatlarni ko'rib, ich-ichimdand quvondim, ijodkor ekanimdand faxrlandim, g'ururlandim.

Farmonda asosiy maqsadlar sifatida teatr, kino, raqs, opera, folklor, estrada, akademik va milliy cholg'u, tasviriy va amaliy san'at hamda adabiyot kabi yo'nalishlarda ijodiy birlashmalar faoliyatini yo'lga qo'yish va qo'llab-quvvatlash belgilangan. Shuningdek, ijodkorlarni rag'batlantirish, ularning xalqaro tanlovlardagi ishtiroki sonini 2027-yilda 20 foiz, g'oliblar sonini 30 foiz, 2030-yilga qadar ishtirokchilar sonini 5 baravar, g'oliblar sonini esa 2 baravar oshirish, shoir va yozuvchilar tomonidan har yili kamida 50 ta eng sara asar yaratish, milliy adabiyotning eng yaxshi 10 ta asari xorijiy tillarga tarjima qilinishini ta'minlash vazifalari qo'yilgan. Buni ko'rib "Xayriyat, shu paytgacha yozgan asarlarini o'z mablag'lari hisobidand nashr ettirib, so'ng kitoblarini sota olmay, moddiy jihatdand qiyin ahvolda yashayotgan adiblarimizning ko'ksiga shamol tegdi deb qalbimiz quvonchga to'ldi.

Bu tarixiy hujjatda ijodkorlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga munosib shart-sharoitlar yaratish, jumladan, har yili ming nafar ijodkorlari uy-joy bilan ta'minlash, 3 ming nafarini bepul davolash kabi imtiyozlar berilganini ko'rib, shu paytgacha uy-joyi yo'qligi bois, Vatan ichra bevaftand bo'lib, oilasi bilan "Do'rmon" ijod uyida yoki allaqanday umumiy yotoqxonalarining katakladek xonalarida noiloy yashab, topganining yarmidand ko'pini ijara haqiga to'lab kelayotgan xokislar shoir-yozuvchilarimizning orzulari ushlabdi desak adashmaymiz.

Mazkur farmonda nodavlat teatr va teatr-studiyalar sonini 2028-yilda 50 taga yetkazib, teatr sohasida xususiy sektor ishtirokini 25 foiz oshirish vazifasi qo'yilganini o'qib esa davlat va nodavlat teatr hamda teatr-studiyalari o'rtasida qarobotni oshirib, ko'nglimizda bu imoniyatlar samarasi o'laroq, ularda yaratilyotgan asarlar sifatining tubdand yaxshilanishiga umid uyg'ondim.

Adabiyot va san'at ahli, qolaversa, butun mamlakat ziyolilari qalblariga quvonch mujdalarini olib kirgan mazkur hujjatda 2027-yildand boshlab ijodiy birlashmalarining yillik ijodiy hisoboti shaklida Milliy ijodkorlar qurultoyi o'tkazilishi hamda unda ijodiy birlashmalarining yil davomidand eng yaxshi natija ko'rsatgan ijodkorlari davlat byudjeti mablag'lari hisobidand belgilangan tartibda rag'batlantirib borilishi, ularning badiiy kechasi, mahorat maktabi va ijod uylari tashkil etilishi, soha ahliga bir yil davomidand har oyda 5 million so'm miqdorida gonoror to'lab borilishi, uch yil davomidand O'zbekiston bo'yiladand samolyot, poyezd va jamoat transportidand bepul foydalanishi kabi imkoniyatlar berilgani g'oyat quvonarlidir.

Iste'dodlarni aniqlash va rivojlantirish, ularning produserlik faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan biznes loyihalarni moliyalashtirish maqsadida Madaniyat vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomisiz "Ijodga investitsiya" davlat maqsadli jamg'armasi tashkil etilishi esa ko'plab iste'dod sohiblari kashf etilishi va bu ular tomonidand zamon talablariga mos teran asarlar yaratilishiga imkon berishi nur ustiga nur bo'ldi.

Adabiyot va san'at ahliga naqadar cheksiz hurmat-ehtirom va g'amxo'rliklar ko'rsatilyotganini inobatga oladigan bo'lsak, jadid bobomiz Abdulhamid Cho'p'oning "Adabiyot yashasa — millat yashar", degan mashhur iborasiga Prezidentimizning "Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi", degan da'vatkor so'zlari naqadar mushtarak ekanini his qilishimiz mumkin.

Biz, ijod ahliga esa ko'rsatilgan bu yuksak ehtirom va g'amxo'rlik uchun samimiy tashakkurimizni izhor etib, berilgan imtiyoz va imkoniyatlardan unumli foydalanib, millatimizga, xalqimizga manzur bo'ladigan ajoyib, betakror asarlar yaratishdek mas'uliyatli vazifani amalga oshirish qoldi, xolos.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdand sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-646. 30166 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etiladi.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo'ronov Musahhih: Malohat Mingboyeva Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy